

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA

INSTITUTI

AMALIY MEXANIKA

O`QUV – USLUBIY MAJMUA



Buxoro – 2018

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ _____
2018 y. “__” _____

“TASDIQLAYMAN”
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
prof. Q.T.Olimov _____
“__” _____ 2018 yil.

AMALIY MEXANIKA

O`QUV – USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	300000	– Ishlab chiqarish texnik soha
Ta'lim sohasi:	320000	– Ishlab chiqarishlar texnologiyasi
Ta'lim yo`nalishi:	5321500	– Texnologiyalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha)

Buxoro – 2018

O'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligida № _____ raqam bilan ro'yhatga olingan 201_ yil "___" _____ da _____ - sonli buyruq bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

Nuriddinov X. -Bux.MTI,
"Mashinasozlik texnologiyasi"
kafedra dotsenti, t.f.n.
Qalandarov N.O.- Bux MTI
"Mashinasozlik texnologiyasi"
kafedra assistenti.

Taqrizchilar:

Gaffarov H.R.- Buxoro muhandislik-texnologiya instituti "Mashinasozlik texnologiyasi kafedra dotsenti.

Nasullayev Z.R. – "Buxoro ta'mirlash mexanika zavodi AJ boshqaruv raisi.

Ushbu o'quv uslubiy majmua "Mashinasozlik texnologiyasi" kafedrasining 2018 yil _____dagi ____-sonli majlisida muhokama qilingan va fakultet uslubiy kengashiga taqdim qilingan.

Kafedra mudiri: _____ dots. N.F. O'rinov

Ushbu o'quv uslubiy majmua "Muhandislik-qurilish" fakultetining 2018 yil _____dagi ____-sonli majlisida ko'rib chiqilgan va institut uslubiy kengashiga taqdim qilingan.

Fakultet dekani: _____ dots. SH.M. Muradov

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i: _____ dots. SH.M. Xojiyev

Mundarija

1.	Ma'ruza mavzulari.....	5
	Amaliy mashg'ulot topshiriq va misollari.....	118
	Tajriba mashg'uloti mavzulari.....	140
	Kurs loyihasini bajarish bo'yicha topshiriqlar to'plami. Bajarishga uslubiy ko'rsatmalar, misollar.....	193
	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari mavzulari.....	232
2.	Glossariy.....	236
3.	Ilovalar.....	239
	Fan dasturi.....	240
	Ishchi fan dasturi.....	248
	Testlar.....	252
	Baholash mezonlari.....	263
4.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....	270
	O'quv uslubiy majmuaning elektron shakli (CD diskda).....	

I.Ma'ruza mavzulari

Mavzu: Fanning maqsad va vazifalari.

Reja:

- 1.Fanining asosiy qismlari.**
- 2.Mashinalar yaratishga quyiladigan talablar.**
- 3.Parametrlar, mexanizmlar analizi, mexanizmlar sintezi.**
- 4.Mashinalarning funksional klassifikatsiyasi,**
Tayanch iboralar.

Mashina, mexanikaviy mashina, gidravlik mexanizm yoki mashina, mexanizmlar analizi, mexanizmlar sintezi, stanok, tishli tasmali, mexanizmlar, mashina avtomat, fizik kattalik, agregat, ish mexanizmi, mexanizm strukturasi, kinematika, statika, dinamika.

Fanining asosiy qismlari Jamiyat taraqqiyoti, ishlab shiqarish darajasiga, ishlab shiqishdagi Mashina va mexanizmlarning texnika jihatidan qanshalik takomillashganligiga, bu mashina hamda mexanizmlarni bevosita yoki bilvosita boshqarib turuvshi kadrlar malakasiga bog'liqdir. asosan jamiyatimizdagi yosh kadrlarni yuqori darajali malakasiga bog'likdir. Jamiyatni oldin surish ushun yuqori malakali mutahassislar yordamida ishlab shiqarishni unimdorligini oshirish, buning ushun texnikani yanada yangi turlarini kashf etish shu borada rivojlantirishni jahon miqiyosiga kutarish, hamda jamiyatda olg'a qadam tashlashga erishish mumkin.

Mexanika qadimiy fan bo'lib bu fan shu kungacha bir neshta tarmoqlarga bo'linib alohida alohida Fan sifatida revojlaniy kelmoqda. Bugunlik kunda mexanika fani asosan 2 qisimdan iborat bo'lib ulardan biri nazariy mexanika ikkinshisi esa tadbqiqiy mexanika hisoblanadi.

1. **nazariy mexanika** bunda material sistema harakatining umumiy qonuniyatlari va hossalari urganiladi.

2. **tadbqiqiy mexanika** fanning bu tarmog'ida mexanik sistemaning boshqarish prosesslari o'rganiladi. Tadbqiqiy mexanikada – mexanikaning umumiy qonuniyatlari asosida mexanik sistema harakatini boshqarish usullari, bu harakatga tegishli bo'lgan hossalarni kiritish yo'llari urganiladi. Shuning ushun tadbqiqiy mexanika boshqariluvshi prosesslar haqidagi fan deb ataladi.

Tadbqiqiy mexanikada urganiladigan ilmiy masalalardan asosan quyidagilariga tuhtalib utish lozim.

1. tebranishlar va avtomatik me`yorlash hamda boshqarish nazariyasi.
2. MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASI.
3. Ushi shva suzish apparatlari harakatini avtomatik boshqarish nazariyasi.

Demak biz urganayotagan MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASI fani buyuk mexanika tarmog'i qismida joylashgan bir bo`lim bo`lib bugunlik kunda malakali kadrlar tayorlash jarayonida alohida fan tariqasida urganilmoqda.

Mashinalar yaratishga quyiladigan talablar Hammamizga ma`lumki Mashinalar yoki mexanizmlar yaratishda ularga quyiladigan talablar mavjud

bo'lib ular quydagilardan ibozat.

1. Tehnika talablari—Bunda asosan mashina ish unumining yuqor bulishi, aniq harakat qilishi va sifatli mahsulot ishlab shiqarish talab etiladi.

2. Konstruksiyaning ratsional bo'lishi – bunda mashinanig ortiqsha og'irlikdagi qismlari bo'lmasligi, materiallarni tug'ri tanlash va detallardagi haqiqiy kushlanish optimal bo'lishi talab qilinadi.

Mashina yoki mexanizmlarni ularning parametrlari bo'yisha nazoratdan utkazish talab qilinganda qo'yidagi parametrlar ko'zda tutiladi.

1. Konstruktiv parametrlar – maksimal kush va quvvat, siljish, tezlik, tezlanish, zvenolardagi kushlanish, gabarit ulshamlar va og'irliklar.

2. Technologik parametrlar – foydali qarshilik kuchlari yoki quvvat, mahsulotning o'lshov shigarasini ta'minlovshi mashina harakati va ish organining aylanish soni, kesuvshi asboblarning salt yurish tezligi, berilgan seklni bajarish aniqligi, uzelnig qattiqligi va h.k.

3. energitik parametrlar – energiya sarfi, uning mexanizmnda yo'qotilishi, mashina uzellarining foydali ish koeffisientlari.

4. Iqtisodiy parametrlar – mashina uzellarini ishlab shiqarishda tayyorlash narhi, ularni boshqarish va remont narhi, harakatga keltirish ushun sarflangan energiya bahosi va hokazo.

Mashina va mexanizmlarning moddiy boyliklar ishlab shiqarishdagi ahamiyati hozirgi kunda har qashongidan ham oshib bormoqda. Mashina sanoatimizning turli sholarida qul mehnati o'rnini bosmoqda. Mashiea va mexanizmlar og'ir sanoatda, o'rmon hujaligida, aviasiya sanoatida, engil, tuqimashilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmiqlarda zo'r samaralar Bilan hizmat qilib kelmoqda.

Bizga ma'lumki har qanday mexanizm va mashina tarkibiga turli tarzda harakat qiluvchi qismlar (zvenolar) kiradi va ularning harakatlar tug'risidagi masalalar hal qilinishi Fan oldiga maqsad qilib qo'yiladi.

Fanida urganish davrida quyidagi ikkita masala hal qilinadi:

1. Mexanizmlar analizi bunda mavjud mexanizmlar knematik va dinamik jihatdan tekshiriladi.

Mexanizmlar analizidan, asosan tehnologik maqsadlar ushun foydalaniladi; mutahasis tehnologlar ushun mexanizmning ayrim no'qtalari harakat qonunini bilish katta ahamiyatga egadir.

2. Mexanizmlar sintezi bunda bizga kerak bulgan ya'ni tehnologik prosesni bajarishda ishlatiladigan mexanizm zvenolaring harakat qonuni berilgan buladi va shu harakat qonuni amalga oshiruvshi mexanizm yaratish talab etiladi. Mutahasis mashinasozlar ushun sintiz problemasining ahamiyati g'oyat kattadir. Turli maqsadlarni amalga oshirmoq ushun yaratilgan turli inshootlar va uskunalarni, asosan ikkita katta gruppaga bo'lish mumkin; birinshisi, qismlari bir – biriga nisbatan quzg'almaydigan, ikkinshisiga esa qismlari bir – biriga nisbatan qo'zg'ala oladigan qurilmalar kiradi.

Qismlari nisbiy harakatda buladigan inshootlar mexanikasi bilan, asosan, MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASI fani shug'illanadi. Inson

biror ishni bajarish davrida ma'lum tartibda harakat qiladi. Mashina yoki mexanizmlar harakati ham insoniyatning harakatlanish prosesidagi harakat tartibiga asoslangan holatda amalga oshiriladi.

Har qanday mashina energiya hosil qilmaydi, balki energiya ishlatadi boshqasha qilib atganimizda bir tur energiyani boshqa bir tur energiyaga aylantiradi.

Mashina ishlab shiqarish prosesi yoki energiyani uzgartirish prosesi bilan bog'liq bo'lgan va foydali ish bajarish ushuni muljallangan mexanizmlar yig'indisi **mashina deb ataladi**. Mashina asosan, insonning ish bajarish qobiliyatini oshiruvchi mexanik sistemadan iboratdir. Mashina suzi fransuzsha «**machine**» va lotincha «**mashina**» so'zidan olingan bo'lib ma'nosi inshoot demakdir.

Mexanizm suzi grek meshane so'zidan olingan; bu so'z qurol yoki inshootni anglatadi.

Mashinalarning funksional klassifikatsiyasi, Inshootlar, uskunalar va mashinalar haqida tushunchalar.

Hozirgi davrgacha bo'lgan barcha mashinalarni asosan energitexnika, transport va texnologik guruhlariga bo'lib o'qitilgan edi. Hozir kontrol boshqaruvchi mashinalar va ustqurmalar; matematik va kibernetik mashinalar to'g'risida o'qitilib kelmoqda. Kontrol boshqaruvchi mashinalar mashina sistemasi majmuasida mahsulot olishda qatnashayotgan obektlarni kontrol qilish va boshqarish ishlarini, matematik mashinalar esa turli tipdagi logik operatsiyalarni bajaradi, ammo kibernetik mashinalar insonning bazi organlarining ishini ham bajaradi, ya'ni protez moslamalar, sun'iy yurak, sun'iy buyrak vazifasini bajaradigan va obrazlarni payqab oladigan mashinalar shular jumlasiga kiradi.

Demak biz yuqorida aytib o'tgan uchta ishlab chiqarish mashinalariga qo'shimcha yana uchta: kontrol boshqaruvchi va matematik mashinalar, kibernetik mashinalar hamda moslamalar kiradi.

Shunday qilib mashinalarni qo'yidagicha ta'riflash mumkin.

«Mashina inson mehnatini osonlashtirish va unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning intellektual (aqliy) hamda fiziologik vazifalarini bajarish yo'lida ishlatiladigan va inson tomonidan yaratilgan sun'iy moslamadir».

Bugunlik kundagi mashinalar nafaqat insonni jismoniy harakatini osonlashtiradi balki aqliy mehnatini ham osonlashtirish ushuni xizmatkor bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bunday mashinalarga hisoblash texnikalari yaqqol misol bo'la oladi. Mashinalarni asosan qo'yidagi bloklarga bo'lish mumkin.

1. mashina divizorlari
2. ish mashinalari
3. uzgartiruvchi mashinalar

Mashina – dvigatellar, ya'ni harakatga keltiruvchi mashinalar (bug' mashinalari, ishki yonuv mashinalari). bu mashinalar vositasi bilan energiya turlaridan biri aylanma harakatga bo'lgan valning yoki ilgariylanma harakatda bo'lgan polzuning mexanik energiyasiga aylantiriladi.

Ish mashinalari, ya'ni mashina qurollar. bunda mashinalarda materialning (hom ashiyoning) shakli, holati yoki hossasi uzgartiriladi.

O'zgartiruvchi mashinalar. Bu mashinalar yordami bilan bir tur energiya

boshqa bir tur energiyaga aylantiriladi; bunday mashinalarga geniratorlar misol bo`la oladi. Masalan, genirator yordami Bilan mexanik energiya elektr energiyasiga aylantiriladi.

Demak asosiy ishni mashinaning ish organi bajaradi. Masalan, tikuv mashinasinin ish organi uning ninasi, pahta terish mashinasining ish organi shpindellar apparati hisoblanadi. Shundan bizga ma`lumki, har bir mashina tarkibida uning ish organini harakatga keltiruvshi qism ham bulishi lozim ekan. Mashinada ish organiga harakatlantiruvshi kushdan harakat uzatuvshi mexanizm ham bulishi lozim. Yuqorida aytilgan ush qism birga qushilganda mashina agrigati hosil buladi.

Har qanday mashina biror – bir foydali ish bajaradi Mashina narmal holatda ishlashi ushun unda qo`yidagi ushta: 1) mashina ma`lum tartibda tuzilgan bulishi; 2) uning qismlari ma`lum tartibda harakatlanishi; 3) mashina tegishli va kuzlangan maqsad asosida foydali mexanik ish bajarishi shart.

Mashinada shu ush belgidan faqat ikkitasi bo`lib, ushunshisi bulmasa, u holda mashina mexanizmga aylanadi. Demak mexanizm foydali ish bajarolmaydi va energiyani bir turdan boshqa bir turga aylantiraolmaydi. Mexanizmning vazifasi ma`lum tartibda harakat qilish yoki harakatni uzatishdan iboratdir.

Shunday qilib mexanizm vositasida ma`lum harakat hosil qilinishi yoki bir harakat uzgartirilishi mumkin.

Mexanizm harakati dovrida shu mexanizm zvenolarida sodir buladigan quzg`alish, tezlik, tezlanish, inersiya kuchlarining o`zgarish qonunlarini ma`lum bir dovr ishida urganish – MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASI fanining asosini tashkil etadi.

MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASIni o`rganishda, avvalo, shu mexanizm tarkibiga kiruvshi qismlar (zvenolar) absolyut qattiq jismlar deb, ularning harakati vaqtida shu qismlarda hish bir deformasiya bulmaydi deb faraz qilinadi.

MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASIda fizik kattaliklarning ulshov birliklari ihtiyoriy bo`lsa ham, uzunlik o`lshov birligi sifatida **metr**, vaqt ulshov birligi sifatida **sekund**, kush ulshov birligi sifatida **kilogramm** qabul qilinadi. Qolgan barcha murakkab fizik kattaliklar anna shu asosiy fizik kattaliklarga qarab olinadi.

Jahon va O`rta Osiyo olimlari fanni rivojga qo`shgan hissalar.

Mexanizm mashinalar nazariyasi faniga ko`pgina olimlar o`z hissalarini qo`shib kelmoqdalar, Shunday olimlardan Galiley teng o`zgaruvchan harakat dinamika qonunlarini, Lagranj esa mumkin bo`lgan qo`shishlar (vertual kushishlar) prinsipini oshib berdilar Koriolis mexanik harakatlardagi o`zara ta`sirning shuqur sirriyotini tushuntirib berdi. Mashhur mexaniklardan I.V.Meshsherskiy (1859 - 1935) o`zining «O`zgaruvshan massali nuqta dinamikasi» (1897) Rus professori P.I. Somovning mexanizmlar geometrikanalizi va sentiziga oid asarlari Bilan o`z hissalarini qushib kelmoqda.

Qishloq ho`jaligi mashinalari mexanikasi sohasida akademik V.P.Goryashkinning (1868 - 1935) hizmatlari g`oyat kattadir.

Peterburg politehnika institutining professori Leonid Vladimirovish Asur

(1878 - 1920) tekislikda harakatqiluvchi sterjenli mexanizmlarning tuzulishi va klassifikasiyasiga oid katta – katta ishlar qildi. L.V. Asur quyi juftlardan tarkib topgan va tekislikda harakat qiladigan sterjenli mexanizmlarning tuzulish qonunini topdi va tekis mexanizmlarni ma`lum klass hamda tartiblarga bo`ldi. Bundan tashqari Yana bir qancha olimlarning qilgan ishlarini aytib utish mumkin.

Ma`ruza ushun savollar.

1. Mashina va mexanizmlar nazariyasi faning maqsadi.
2. Fanning asosiy vazifalari
3. Fanning boshqa fanlar bilan bogliqligi
4. Shu fanning rivojiga vatanimiz olimlarining qo'shgan hissalar.
5. Mashina qanday qyirma.
6. Mexanizmlar mashina hisoblanishi ushun qanday hislatlarga ega b`ylishi lozim.

Mavzu: Mashina va mexanizmlarning asosiy turlari.

Reja.

1. Rishagli mexanizmlar.
2. Kulashokli mexanizmlar.
3. Shesternali (tishli) mexanizmlar.
4. Vintli va ponali mexanizmlar.
5. Friksion mexanizmlar, egiluvshan zvenoli mexanizmlar,

Tayanch iboralar.

Richag, rishagli mexanizm, kulachok, kulachokli mexanizm, tishli mexanizm, vintli mexanizm, ponali mexanizm, gidravlik mexanizmlar, dezaksial, aksial, karamislo, sharnir, polzun.

Mashinasozlikda ishlatiladigan va ishlatilayotgan barcha mexanizmlarning konstruksiyasiga qarab, qo`yidagi gruppalariga bo`linadi.

- 1) Rishagli mexanizmlar
- 2) Kulashokli mexanizmlar
- 3) Shestirnali mexanizmlar
- 4) Vintli va ponali mexanizmlar
- 5) Friksionli mexanizmlar
- 6) Gidravlik va Pnivmatik mexanizmlar
- 7) egiluvshi zvenoli mexanizmlar

Utilayotgan fanimizning nomi hamamizga ma`lum MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASI deb ataladi. Shunday ekan avvalom bor mashina nima va mexanizm nima degan savollarga javob berish lozim.

Mashina - uzi nima? **Mashina** bu inson tomonidan yaratilgan qurilma bo`lib, insoning jismoniy mehnatini osonlashtiradigan, hamda mehnat unumdorligini oshiradigan qurilma mashina deb ataladi. **Mashina** ikki va undan ortiq mexanizmlar tuplamidan tashkil topgan qurilma hisoblanadi.

Mexanizm – qanday qurilma? Mexanizm qurilmasi bir yoki bir nisha jism harakatini boshqa bir jismning aniq belgilangan qonuniyatga amal qiladigan harakatga aylantirib beruvshi qurilma hisoblanadi.

Mexanizmlar zvenolardan tashkil topgan qurila hisoblanadi.

Zveno deganida nimani tushunamiz? zveno deb yagona detal yoki bir nisha

detallarning o'zaro quzg'almas birikmasi zveno deyiladi. Zvenolar bir-birlari bilan o'zaro kinematik juftlar orqali bog'lanadi.

Kinematik juft nima? Bu ikki zvenoning o'zaro nisbiy harakatiga imkon yaratib beradigan bog'lanishiga, yoki biri ikkinshisiga, hamda ikkinshisi birinshisiga nisbatan harakat qila oladigan ikki zvenoning qushilmasiga kinematik juft deb ataladi.

Bog'lanish deganda nima tushuniladi? Bog'lanish ikki zvenoning bir – biri bilan bog'langan qismi bo'lib bu elementlar sirt, shiziq yoki no`qta bulishi mumkun.

Bog'lanishlar turiga qarab kinematik juftlar **qo`yi** yoki **oliy** kinematik juftlarga bulinadi.

Agar bog'lanish elementlari sir tyoki yuza bulsa bunday kinematik juftlar **qo`yi** kinematik juftlar deb, Bog'lanishlar nuqta yoki shiziq bulsa **Oliy** kinematik juftlar deb ataladi.

Zvenolarning kinematik juftlar orqali bog'langan gruppasi **kinematik zanjir** deb ataladi. Kinematik zanjirlar oddiy va murakab, oshiq yoki yopiq holatda bulishi mumkin. oddiy kinematik zanjirlarda har bir zveno ikkitadan ortiq kinematik juft hosil qila olmaydi. Murakkab kinematik zanjirda ikkita va undan ortiq kinematik juft hosil qila olish imkoniyatga ega bulgan zvenolarga aytiladi. oshiq kinematik zanjirda shunday zveno borki u faqat bita kinematik juft qiladi. Yopiq kinematik zanjirda esa ikkitadan kam kinematik juft hosil qilmaydi. Mexanizmni yopiq kinematik zanjirning hususiy kurinishi deb qarash mumkin. Mexanizm shunday yopiq zanjirki, undagi bir yoki bir nesha zvenoga harakat berilganda qolgan zenolar ham aniq harakat qiladilar.

Mexanizmlarning tuzulishlarini tekshirish ushun ularning shemasini shizish kifoya.

1. Rishagli mexanizmlar.

Rishagli mexanizm tarkibida faqat aylanma va ilgarilama quyi knematikoviy juftlari bo'lgan rishagli zvenolardan tuzilgan mexanizmdir Rishagli mexanizmlar boshqa mexanizmlarga qaraganda katta kush va quvvat uzatadi va foydali ish koeffisientlari ham yuqori bo'ladi.

Rishagli mexanizm zvenolarini tayyorlash oson, ular mustahkamligi va eyilishga shidamliligi yuqori bo'lgani ushun quvvati katta bo'lgan preslarda, bolg'alash mashinalarida keng ko`lamda ishlatilib kelmoqda.

Rishagli mexanizmlarning turlari va ularning ishlatish shemalari.

Mexanizm shemasi deb undagi zvenolar va kinematik juftlarning masshtabga rioya qilinmagan holatda, shartli belgilashlar orqali grafik tasvirlanishiga aytiladi. Masshtab asosida qurilgan mexanizm shemasi **kinematik shema** deb ataladi. Harakat qonunini belgilagan zveno odatda etakshi yoki **bosh zveno** deb ataladi. Mexanizm tarkibidagi etakshi zvenoning aniq harakat holati qolgan zvenolarning aniq harakat holatini beradi. Mexanizmning tuzilishini tekshirish ushun uning shemasini shizish kifoya. Mihanizmning kinematik va kinetostatik tekshirish ushun uning kinematik shemasi bulishi shart.


Mexanizmlar turli alomatlariga kura, ajiraladi. Birinshi navbatda ular **Oliy** va **Qo`yi** juftlarga ajiraladi, bunday mexanizmlar **tekis** yoki **fazoviy** bulishi mumkin. Hamma harakatlanuvshi nuqtalari paralel tekisliklarda harakatlangan mexanizmlar **tekis mexanizmlar** deb ataladi.

Bug'inlarning harakatlanuvshi no`qtalari tekis bulmagan troektoriyalar shizib yoki uzaro kesishuvshi tekisliklarda joylashuvshi, harakat dovrida traektoriyalar shizib harakatlangan mexanizmlar **fazoviy mexanizmlar** deb ataladi.

Quyi juftlik mexanizmlar tarkibiga pashangli, ponali va vintli mexanizmlar, **Oliy juftlik mexanizmlar** tarkibiga kulashokli, tishli g'ildirakli, friksion, hrapovik


mexanizmlar kiradi.

Mexanizmlar zvenolarining tuzilishlari.



2.1 – shakl.

Rishagli mexanizmlar hozirgi zamon mashina va mexanizmlarida juda ko'p ishlatiladi. Bunday mexanizmlar sterjinli mexanizmlar deb ham ataladi. Biz hozir kuradigan oddiy rishagli mexanizmlar ikki zvenoli bo'lib, u quzg'almas stoyka va uning atrofida aylanuvshi qo'zg'aluvshi zvenodan iborat. (2.2- shakl).



Bu mexanizm asosan qo'zg'almas (1), va o'z o'qi atrofida aylanuvshi (2)-zvenodan krivoshipdan iborat. Bu turdagi mexanizmlar asosan hozirgi zamon mashinalarida va ratasion (aylanma harakat) qiladigan mashinalarda ko'p ishlatilib kelmoqda.

Masalan: elektr motorlari, trubinalar, ventilyatorlar shamol dvigatellari va boshqa shunga o'hshash mashinalar shular jumlasiga kiradi.

Rishagli mexanizmlar tuzilishiga ko'ra, bir nesda turlarga bulinadi.

2. Sharnirli to'rt zvenoli rishagli mexanizm. Bunday mexanizmlar faqat aylanma kinematikaviy juftlar (sharnirlar) dan tuzilgan bo'lib, ular mustaqil mexanizmbo'lishi yoki murakab mexanizmlarning tarkibiy qismini tashkil etishi mumkin.

Ular kurinishi jihatidan bir nesda gruppaga bulinadi:

a) ikki krivoshipli rishagli mexanizm;

b) krivoship – karamisloli mexanizm;

v) ikki karamisloli mexanizm;


Murakabroq rishagli mexanizmlar hozirgi zamon to`quv va yuk ko`tarish kranlarining asosiy mexanizmi bulgan va tehnikaning turli tarmoqlarida ko`p ishlatiladigan 4-zvenoli mexanizmlardir (2.3- shakl).

1 - qo`zg`almas zveno

2 - tirsakli val (krivoship)

3 - shatun


2.3- shakl 4 - karamislo



Bu mexanizmlar asosan bir-biriga sharnirlar yordamida bog`langan bo`lib 4-zvenoli mexanizm hisoblanadi. Bu mexanizm tarkibida birta krivoship va birta koromislo bo`lgani ushun, bunday mexanizm to`rt zvenoli **sharnirli krivoship koromisloli mexanizm** deb ataladi.

3. Krivoshipli – polzunli mexanizm. Bu mexanizm, asosan, krivoship shatun 2, va qo`zg`almas yo`naltiruvshi bo`ylab ilgarilama - qaytar harakatlanuvshi zveno – polzun 3 dan iborat. 2 – shakldagi sharnirli to`rt zvenoli mexanizmdagi koromislo o`rniga polzun o`rnatib, uni qo`zg`almas yo`naltiruvshi bo`ylab harakatga keltirsak u holda bu mexanizm krivoship polzunli mexanizmga aylanadi (2.4- shakl).

Bu mexanizm yordamida krivoshipning aylanma harakati polzunning ilgarilama- qaytar harakkatga aylantiriladi. Bu mexanizm yordamida polzunning ilgarilama harakatini krivoshipning aylanma harakatiga aylantirish ham mumkin.




2.4-shakl. 1- qo`zg`almas zveno 3- shatun

2- krivoship 4- polzun

4. **Kulisali mexanizm.** Agar to`rt zvenoli sharnirli mexanizmning tarkibidagi polzun qo`zg`aluvshan yo`naltiruvshidan harakatlansa, bunday mexanizm **kulisali mexanizm** deyiladi. Kulisali mexanizmda (2.5– shakl) krivoship toshga ta`sir etadi. Bu mexanizmda kulisa tebranma harakat qiladi, tosh esa kulisa bilan tebrangan holda krivoship aylanasi bo`ylab harakatlanadi.

Kulisali mexanizmlarning kulisasi to`la aylanishi yoki ma`lum burshakka burilib, tebranma harakat qilishi mumkun. Agar krivoshipning uzunligi - r

krivoship bilan kulisa stoykalari h – oralig'idan katta yani $r > h$ bo'lsa, kulisa 360° ga tula aylanadi, aks holda esa tebranma harakat qiladi.



5. Kulashokli mexanizmlar

Kulashokli mexanizmlar texnikaning hamma – hil sohalarida juda keng ishlatiladi. masalan avtomatik mashinalarda, avtomobillar ishlarida juda yaxshi natijalar berib kelmoqda. 5 – shaklda oddiy kulashokli mexanizmlar tasvirlangan. bu mexanizmlar asosan turt zvenodan: 1- quzg'almas zveno, 2- qo'zg'almas o'q atrofida aylanuvshi zveno (kulashok), 3-rolik, 4- tolkatel (shunga) lardan iborat.

Kulashokli mexanizmlar aksial va dezaksial kulashokli mexanizmlarga bo'linadi 2.6- shakl.

2.6-shaklning A va S lari dezaksial va 2.6- shakl V esa aksial kulashokli mexanizm tarkibiga kiradi.


Tolkatelning o'qi kulashokning aylanish o'qi (O_1) dan o'tsa, kulashokli bunday mexanizm aksial (2.5-shakl V) yoki markaziy kulashokli mexanizm deb ataladi; tolkatel o'qi (O_1) nuqtadan utmasa, u holda mexanizm dezaksial kulashokli mexanizmi deb ataladi.

Tishli g'ildiraklar vositasida harakat bir valdan ikkinchi Valga uzatiladi. Harakat uzatayotgan ikki g'ildirak yoki shesternya tishli ilashish hosil qiladi. Agar tishli ilashishda silindrik sirtlarga o'rnatilgan tishlar shu silindirlarning o'qlariga paralel bulsa tishli ilashishning bu turi to'g'ri tishli ilashma deb ataladi.


2.6- shakl

Silindrik sirtlarga tishlarning qanday urnatilishiga qarab tishli ilashishlar ikki turga bulinadi. Agar ikkala zvenodagi tishlar silindrning sirtqi yani tashqi yuzasiga o'rnatilgan bo'lsa, bunday ilashish sirtqi ilashish deb


ataladi. G'ildiraklardan birining tishlari silindrning ishki yuzasiga joylashgan balsa bunday ilashish ishki ilashish deb ataladi. Silindrik ilashishda tishli g'ildiraklardan biri reyka balsa, u holda, ilashish reykali silindrik ilashish hisoblanadi



Dezaksial tekis talkatelli kulochokli mexanizm 1-kuzfalmas
zveno: 2-kulachok;
3-rol; 4-tolkatel.



Aksial kulochokli mexanizm 1-kuzfalmas
zveno: 2-kulachok;
3-rol; 4-tolkatel.



Dezaksial kulochokli mexanizm 1-kuzfalmas
zveno: 2-kulachok;
3-rol; 4-tolkatel.


7. Friksion mexanizmlar

Ishqalanish kushining yordami bilan har qanday zvenoning harakati to'htatilishi yoki to'htab turgan zveno harakatga keltirilishi mumkin. Ishqalanish kuchlari yordami bilan harakatga keltiriluvshi yoki to'htatiluvshi mexanizmlar friksion mexanizmlar deb ataladi.

Friksion mexanizmlar texnikaning turli tarmoqlarida mexanizm zvenolarining burshak tezliklarini bir mi'yorda o'zgartirish ushun har hil konus uzatmalarda, ba'zi muftalarda va turli tormozlarda ko'p ishlatiladi.

8. egiluvshan zvenoli mexanizmlar

Hozirgi zamon texnikasida egiluvshan zvenolarni (arqonlar, tasmalar, lentalar, zanjirlar, troslar va boshqalarni) o'z ishiga oluvshi mexanizmlar ham kup ishlatiladi (2.7.shakl).



2.7 – shakl.

Egiluvchan zvenoli mexanizmlar yordami bilan o'qlari etaklovshi zveno o'qiga paralel va ayqashib o'tuvshi zvenolarga harakat uzatiladi. Bunday

mexanizmlar tuqimashilik sanoatida igruv, to`quv mashinalaridakup ushiratish mumkin.

9. Gidravlik va pnevmatik mexanizmlar Harakat uzatishda oraliq vosita sifatida ko`pinsha suyuqlik va gazlar ham ishlatiladi. Tehnikada bunday mexanizmlar gidravlik jihozlangan yoki pnevmatik jihoShlangan mexanizmlar deb ataladi (hozirgi zamon avtomabillarida ishlatiladigan gidravlik tormoz).

10.elektrik mexanizmlar Tehnikaning turli tarmoqlarida tarkibiga elektrik elementlar kirgan mexanizmlar juda kup ishlatiladi.Bunday mexanizmlarning elektrik jihozlari qatiq egiluvshan va suyuq muhitlar vazifasini utaydi.

Bunday elektrik mexanizmlarning afzalligi shundaki, ularning tarkibiga kiradigan etaklanuvshi zvenlar elektrik jihozlar yordami bilan tez tuhtatilishi yoki tez harakatga keltirilishi mumkin. elektrik mexanizmlar kontrol ishlarida va turli prosesslarni yozib olish ishlarida kup qullanilib kelinadi.

Ma`ruza uchun savollar.

1. Mexanizm qanday turlarga bo`linadi.
2. Qanday mexanizm rishagli mexanizm toifasiga kiradi.
3. Kulashokli mexanizmlar qanday harakat qmiladi.
4. Qanday mexanizmlar shestirnali mexanizm deb ataladi.
5. Vintli mexanizmlarning vazifasi nima.
6. Qanday mexanizmlar friksion mexanizm deb ataladi.
7. Tosmali mexanizmlar qanday mexanizm toifasiga kiradi.
8. Zanjirli mexanizm mexanizmlarning qaysi turiga mansub.
9. Pnivmatik mexanizmlar tehnikaning qaysi sohalarida qo`llaniladi.
- 10.Quyi juftlik mexanizmlar tarkibiga qanday mexanizmlar kiradi.
- 11.Oliy juftlik mexanizmlar toifasiga mansub mexanizmlarni ayting.

Mavzu: MEXANIZMLARNING TUZILISHI.

Reja:

1. Bog`lanishlar tug`risida umumiy tushunchalar.
2. Golonomli bog`lanishlar, golonomsiz bog`lanishlar.
3. Ushlab turuvshi yoki ajiralmas bog`lanishlar.
4. Stasionar va stasionarsiz bog`lanishlar.
5. Ideal va real bog`lanishlar.

Tayanch iboralar.

Mexanizm, bog`lanish, golinomli, golinomsiz, erksiz no`qta, erkli nuqta, kinimatib bog`lanish, ajiralmas bog`lanish, ideal va real bog`lanish.

Inson tomonidan yaratilgan, uning jismoniy va aqliy mehnatini engillashtirish va mehnat unumdorligini oshirish ushun hizmat qiladigan qurilma mashina deb ataladi. Mashina mexanizmlardan tashkil topgan.

Bir yoki bir nesha jism harakatini boshqa jismlarning aniq qonuniyatiga amal qiluvchi harakatiga aylantirib berishga muljallangan qurilmaga mexanizm

deb ataladi.

mexanizm shunday yopiq kinematik zanjirki, undagi bir yoki bir nesha zvenoga harakat berilganda qolgan zvenolar aniq harakat qiladi.

Kuyilgan kuchlar ta'sirida ixtiyoriy harakat kiladigan nuqta **erkin nuqta** deb ataladi. Agar shu ta'sir etuvshi kuchlar ma'lum bulsa, u holda material nuqta traektoriyasi harakatining boshlang'ish shartlariga bog'liq bo'ladi. Material nuqtaning fazodagi harakati, biror geometrik va kinematik haraktyerdagi shartlar bilan sheklab qo'yilsa, bunday material nuqta **erksiz nuqta** deb ataladi. Nuqtaning erkin holatini sheklab turuvshi shartlar (sharoitlar) bog'lanishlar deb ataladi.

Kuyilganlar boglanishlarga tulik mexanik karakteristika berish ushun bog'lanishlarturli belgilarga qarab ma'lum klaslarga ajratiladi. Shu nuqtai nazardan bog'lanishlar qo'yidagi gruppalariga bulinadi.

1. G o l o n o m l i b o g ' l a n i s h l a r .

Material nuktaga qo'yilgan bog'lanishlar uning fazodagi harakatigagina shek ko'yib, tezligini sheklamasa bunday bog'lanishlar **golonomli** bog'lanishlar yoki **geometrik bog'lanishlar** deb ataladi. Uning tenglamasi $\Psi(h, u, z) = 0$ bo'lgan faqat biror sirt ustida harakatlansa u holda shu sirtning tenglamasi bog'lanish tenglamasi deb ataladi.

Golonomli boglanishlarga buysunadigan mexanik sistemalar **golonomli sistemalar** deb ataladi.

2. G o l o n o m s i z b o g ' l a n i s h l a r .

Material nuqta doimo harakatlanuvshi sirti vaqt o'tishi bilan o'z shaklini o'zgartirsa, u holda shu sirtning tenglamasi qo'yidagisha bo'ladi.

$$\Psi(h, u, z, t) = 0 \quad (3.1)$$

(3.1) agar material nuqtaga quyilgan bog'lanishlar uning fazodagi holatni va tezligini sheklasa, u holda bunday bog'lanishlar **golonomsiz yoki kinematik** bog'lanishlar deb ataladi va uning matematik ifodasi quyidagisha bo'ladi

$$\psi\left(x, y, z, \frac{dy}{dt}, \frac{dx}{dt}, \frac{dz}{dt}, t\right) \quad (3.2)$$

3. Ushlab turuvshi yoki ajralmas bog'lanishlar

Agar material nuqta harakatiga, berilgan bog'lanishlar tenglamasiga bo'ysunib, u hamma vaqt, shu sirt yoki shizik ustida qolsa, bunday bog'lanishlar **ushlab turuvshi yoki ajralmas bog'lanishlar** deb ataladi.

4. Ushlab turmovshi yoki ajraluvshi bog'lanishlar

Material nuqta harakati vaqtida sirtidan yoki shiziqdan ajraladi. Bunday bog'lanishlar faqat faza sohasini sheklaydi, holos va material nuqta shu shegaradan shiqmaydi.

5. Stasionar bog'lanishlar

Bunda material nuqtaga ko'yilgan geometrik yoki kinematik bog'lanishlar vaktga oshkora bog'liq bulmaydi, ya'ni ular o'z shaklini va holatini o'zgartirmaydi. M: aylanada harakatlanuvshi nuqta $h^2 + u^2 = R$ stasionar

bog'lanishga bo'ysunadi.

6. Stasionarmas bog'lanishlar

Bunda material nuqtaga qo'yilgan bog'lanish, oshkora ravishda, vaqtga bog'liq buladi. Masalan, $R^2 \cdot (t - t_0)^2 - (h - v_0 \cdot t)^2 - y^2 = 0$ kurinishida buladi.

7. Ideal va rical bog'lanishlar

Bog'lanish effektini reaksiya kushi bilan almashtirish mumkin agar ishqalanish hisobga olinmasa, bog'lanish sirti absolyut silliq bo'lib, reaksiya kushi sirt normalga bo'ylab yo'naladi. Bunday bog'lanish **ideal** bog'lanish deb ataladi. Agar reaksiya kushi sirt normaliga ma'lum burshak ostida yo'nalsa, u holda sirt gadir-budur bo'ladi. Bunday bog'lanish **real** bog'lanish deb ataladi.

8. Kinematik juft va ularning hossalari.


Biri ikkinshisiga yoki ikkinshisi birinshisiga nisbattan harakat qila oladigan ikkita zveno qo'shilmasi **kinematik juft** deb ataladi. Ikki zvenoning bir biri bilan qushilgan (tegishib turgan) erlari juftning elementlari deyiladi.

Mexanizmlar tarkibiga kiruvshi zvenolarning har biri ma'lum belgilangan tartibda harakat qiladi, va bu shart. Agar sistema tarkibiga kiruvshi zvenolar ma'lum belgilangan tartibda harakat qilmasa, u holda, bunday sistema mexanizm bo'lmay, tartibsiz harakat qiluvchi sistema buladi.

Mexanizm tarkibiga kiruvshi zvenoning ikkitasi kinematik juft hosil qiladi. Rus olimlaridan H. I. Gahman, A. P. Malshev V.V. Dobrovol'skiy va I.I. Artobolevskiy kinematik juftlar nazariyasiga asos solganlar.

Ikala zveno (val ushi bilan podshipnik) bir – biriga silindrik yuza orqali tegib turadi. Anna shu tegib turgan sirtlar **juftning elementlari** deb ataladi 3.1 – shakl.

Agar val bilan podshnik erkin zvenolar deb qaralsa, ularning erkin darajalar juftning erkin darajasidan ortiq bo'ladi. kinematik juft tarkibiga kiruvshi zvenolarning nisbiy harakatiga ma'lum darajada shek qo'yiladi. Ana shu kinematik juft tarkibiga kirgan zvenolarning nisbiy harakatiga kuyilgan shek kinematik juftlardagi **bog'lanish shartlar** deb ataladi.



3.1- shakl:

1. podshipnik 2. val ushi (ship).

Mexanizm tarkibiga kiruvshi zvenolvr ilgarilanma, aylanma va murakkab harakat kilishi mumkin. Harakatning bunday turlari kinematik juftlar tarkibidagi zvenolarning nisbiy harakatlariga qo'yilgan sheklarga qarab bo'linadi.

Kinematik juftlar zvenolarning nisbiy harakatiga qo'yilgan sheklar

(boglanishlar) soniga qarab bo`linadi.

Ma`ruza ushun savollar

1. Qanday qurilma mexanizm deb atiladi?
2. Qanday vaziatda bulgan no`qtalarni erkin no`qtalar deb atash mumkin?
3. Qanday shart ostida bo`lgan holatlarga bog`lanishlar deb ataladi?
4. Qanday bog`lanishlarga golinomli bog`lanishlar deb ataladi?
5. Qanday bog`lanishlarga golinomsiz bog`lanishlar deb ataladi?
6. Kinematik bog`lanishlar deganda nimani tushunasiz?

Mavzu: KINEMATIK JUFTLARNING KLASSIFIKATSIYASI.

Reja:

1. Kinematik juftliklarning klassifikatsiyasi.
2. Quyi va oliy kinematik juftliklar.
3. Detal va zvenolar, zvenolar va kinematik juftlarni shartli belgilash.

1. Kinematik juftliklarning klassifikatsiyasi

Sovet olimlaridan akademik Artobolovskiy kinematik juftlarning ma`lum klaslarga bo`lib kinematik juftlarning klassifikatsiyani tuzdi. Bu klassifikatsiya kinematik juftlar tarkibiga kiruvshi zvenolarning nisbiy harakatiga kuyilgan sheklar soniga karab tuziladi. Dobrovelskiyning aniklashiga asosan fazoda kinematik juftlar 5 hil klassga yoki turga bo`linadi.

Golonomli bulinishga buysunuvshi biror ob`ektning fazodagi holatini aniqlovshi bir biriga bog`liqsiz fermentlar soni shu ob`ektning fazodagi holatini aniqlovshi bir biriga bog`liqsiz sonlari shu ob`ektning erkinlik darajasi deyiladi.

Agar ozod jism tekislikda harakat qilsa shu jismga tegishli ikki nuqta oralig`i uzgarmas bo`lib, uning bog`lanish tenglamasi tekislikda va fazoda qo`yidagisha bo`ladi.


$$\begin{aligned}(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 &= L^2 \\ (x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2 &= L^2\end{aligned}\quad (4.1)$$

Ikki nuqtaning koordinatalari turtta bo`lib, ular bir biri bilan (4.1) tenglamadagi bog`lanish sharti orqali aloqada bo`ladi. Demak tekislikdagi ozod jismning erkinlik darajasi ushga teng ekan. Umumiy holda fazoda harakat qilayotgan har qanday qattiq jismning erkinlik darajasi oltita bo`lib, ulardan ushtasi H, U, Z, o`qlari buylab ilgarilanma harakatdan ushtasi esa shu o`qlar atrofida aylanma harakatdan iborat bulishi mumkin (4.1 - shakl).

Shunday qilib, fazodagi har bir zveno vaziatini 9 ta koordinata orqali ifodallasak, tekislikdagi zvenoning vaziatini 4 ta koordinata orqali ifodalash mumkin. Agar n ta zveno bulsa, u holda, fazodagi n ta zveno vaziatini 9n ta koordinata orqali, tekislikdagi n ta zvenoning vaziatini esa 4n ta koordinata orqali ifodalanadi.

Agar bu koordinatalar bir – biri bilan hesh qanday bog`lanish orqali

sheklanmagan bo'lsa, u holda, tekislikda ularning erkinlik darajalari $4n - n$ bo'lib, fazoda $9n - 3n$ bo'ladi. Aksinsha, tekislikdagi sistemalar sistemasi $4n$ ta bog'lanish orqali, fazodagi zvenolar sistemasi esa $9n$ ta bog'lanish orqali sheklangan bo'lsa, zvenolar sistemasi qatiq jismga aylanadi, ya'ni ularning erkinlik darajasi nolga teng bo'ladi.



4.1 - shakl:

Shunday qilib sistemaning quzg'aluvshanligi shu sistemaning kordinatalar soni bilan ularga qo'yilgan bog'lanishlar sonining ayirmasi orqali belgilanadi. Bu ayirma sistemaning **erkinlik darajasi** deb ataladi. Nisbiy harakatga qo'yilgan sheklar soni 6 tadan kam bulishi kerak. Agar 6 ta bulsa, kinematik juftlar hususiyati yo'qolib juft qattiq nisbiy harakatsiz jismga aylanadi.

Demak, bog'lanishlar soni 1-5 shegarada o'zgarar ekan. endi nisbiy harakatdagi erkinlik darajasini N bilan, bog'lash shartlari soniga S bilan berilib qo'yidagi tenglamani hosil qilamiz.

$$S + N = 6. \quad (4.2)$$

Butun kinematik juftlar, ular tarkibidagi zvenolarning nisbiy harakatiga qo'yilgan sheklar soniga qarab, boshta klassga bo'lishni ko'rib urganamiz. Buning ushun (4.2) formuladan foydalanib kinematik juftlarning bog'lanishlarining sonini aniqlaymiz.


$$S = 6 - N \quad (4.3)$$

(4.3) tenglamadan foydalanib, kinematik juftlarning klassariga oid misollarni ko'rib shiqamiz.

Tekislik ustida shar turibdi, deb faraz qilaylik (4.2-shakl) Shar bilan tekislik birgalikda kinematik juft hosil qiladi. Shar A harfi bilan, tekislik V harfi bilan belgilangan. Shar tekislikda ushta H , U , Z o'qlari atrofida aylanma harakat va H , U o'qlari bo'ylab ilgarilama harakat qiladi.

Shar Z o'qi bo'ylab pastga tomon harakat qila olmaydi, shunki, uning harakatiga tekislik tusqinlik qiladi. Demak, shar bilan tekislik urtasida bog'lanish hosil bo'ladi. Sharining fazodagi vaziatini o'zaro ushta bog'lanish tenglamasi bilan bog'langan 9 ta koordinata orqali belgilab olinadi. Bir – biriga bog'liqsiz 9 ta koordinata sonidan 3 ta bog'lanish sonini ayirib, 6 ta erkinlik darajasini hosil qilish mumkin. Sharining tekislikka doimo tegib turish shartiga

asosan, sharning erkin




4.2 – shakl. I klass kinematik juft.

harakatiga yana bita shek qo'yamiz. Shunday qilib, sharning 3 ta o'q atrofida aylanma va ikki h, u o'qlari bo'ylab ilgarilama harakatini olamiz. Shunda shar 5 hil harakatda bo'ladi, bu esa sharning erkinlik darajasi sonini bildiradi, bunda bog'lanish tenglamalar soni quyidagisha bo'ladi. **Tekislik bilan shar $S = 6 - N = 6 - 5 = 1$ birinshi klass juft hosil kilinadi.**

Agar tekislik ustida silindr bo'lsa, bu silindr z v ah o'qlari atrofida harakat, h va u o'qlari bo'ylab ilgarilama harakat qiladi. Demak kinematik juft zvenosi bo'lgan silindrning erkinlik darajasi soni 4 ga tengdir (4.3 - shakl).

4.3 – shakl. II klass kinematik juft.



Silindrga qo'yilgan bog'lanish shartlarining soni quyidagisha bo'ladi:

$S = 6 - 4 = 2$ II – klass kinematik juftidir.


Sferik qobiq ishiga solingan shar bog'ldanishlar soni 3 ushga teng bo'lgan kinematik juftga misol bulla oladi..

1 zveno (shar) sirtqi yuzasi bilan 2 zvenoning ishki yuzasiga doimo tegib turishi va zvenolardan biri ikkinshisiga nisbatan faqat shu yuzalar orqaligina nisbiy harakat qilishi mumkin. Bunday kinematik juft **sharli sharnir** deb ataladi.

1 zvenoning 2 zvenoga nisbatan yoki 2 zvenoning 1 zvenoga nisbatan


harakati faqat h , u , z o'qlari atrofida bo'ladigan aylanma harakatdan iboratdir (4.4 shakl). Unga qo'yilgan bog'lanishlar soni quyidagisha bo'ladi:

Sarli sharner: $S = 6 - N = 6 - 3 = 3$ ushinshi klass kinematik juft



4.4 – shakl. III klass kinematik juft.

IV klassga oid kinematik juftni ko'rib shiqaylik. Kovak silindr ishiga silindr joylashgan, deb faraz qilaylik (5 - shakl). Shaklda ko'rsatilgan yahlit va kovak silindrlarning elementlari silindrik yuzalar bo'lib, ulardan birining yuzasi (1 - zvenoniki) sirtqi silindrik yuza bulsa, ikkinshisniki (2 – zvenoniki) ishki silindrik yuzadir (4.5 shakl).




4.5 – shakl. IV klass kinematik juft.

Uning bog'lanishlar soni quyidagitsha. **Ishma ish joylashtirilgan silindr $S = 6 - N = 6 - 2 = 4$ turtinshi klass kinematik juft.**

V klassga oid kinematik juftlar bilan tanishib o'taylik. Agar h o'qi bo'ylab ilgarilama harakatga shek qo'ysak, u holda zveno faqat shu o'q atrofida aylanadi, bordi-yu, aylanma harakatga shek qo'ysak, zveno faqat h o'qi bo'ylab ilgarilama harakat qiladi (4.6 shakl). Demak kinematik juft zvenosiga qo'ilgan bog'lanish shartlarining soni qo'yidagisha buladi:

Yon tomonlariga sheklama urnatilgan ishki va tashki silindrik boglanish $S = 6 - N = 6 - 1 = 5$ beshinshi klass kinematik juft



4.6 – shakl. V klass kinematik juft.

Shaklda ko`rsatilgan v klass kinematik juftning elementlari ishki va sirtqi silindrik yuzalar bilan bir qatorda, ularning yon tomonlariga o`rnatilgan sheklanish tashkil qilgan tekislikdan ham iboratdir.

Yuqorida bayon qilingan kinematik juftlar tarkibidagi zvenolarning oniy nisbiy harakatlari bir – biriga bog`liq emas. Ammo hozirgi zamon texnikasida zvenolarning mumkin bo`lgan oniy nisbiy harakatlari bir – biriga bog`liq, ya`ni bir – biri bilan biror qushimsha tenglama orqali bog`langan kinematik juftlar ham ko`p ushraydi.

Yuqorida bayon qilingan beshta klass kinematik juftlarning birinshi klassdan boshqalarining har hil kurinishlari bor. Bu kurinishlar kinematik juft tarkibiga kiruvshi zvenolar nisbiy harakatlarning aylanma yoki ilgarilanma bo`lishiga bog`liqdir. Masalan: II, IV klass kinematik juftlarning ikki hil kurinishi, III, V klass kinematik juftlarning ush hil kurinishi bo`ladi (aylanma, ilgarilanma hamda vintli juftlar).

2. Quyi va oliy kinematik juftliklar.

Kinematik juftlar quyi va oliy juftlarga bo`linadi. Kinematik juft elementlari bir biriga tekislik yoki sirt orqali tegishib tursa, bunday juft **quyi kinematik juft** deb, agar elementlari nuqta yoki shiziq orqali tegishib tursa, **oliy kinematik juft** deb ataladi.

Kinematik juftlardagi elementlar bir – biriga doimo tegib turishi ushun juftlar yopiq bulishi kerak. Kinematik juftlar ikki yo`l bilan, ya`ni kinematik va kush orqali yopiladi.

Juft shu juft konstruksiyasi orqali kinematik yopiladi.

Kinematik juftlarning normal ishlashi ushun ularning kinematik yopilishi shart. Kinematik biriktirilgan juftlar kush bilan yopilgan juftlarga nisbatan qulaydir.

Oliy kinematik juftlardagi bog`lanish nuqtalarning bir – biriga nisbatan olingan harakat traektoriyalari turlisha bo`ladi.


Quyi juftlarda bunday hollar bo`lmaydi. Shuning ushun, nisbiy harakatdagi bog`lanish nuqtasi traektoriyasiga ko`ra, quyi juftlar **qaytar**, oliy juftlar esa **qaytmas** bo`ladi.

4.3. Detal va zvenolar.

Har qanday mashina yoki mexanizm ayrim qismlardan iborat o`ladi. Anna shu qismlar detallar deb ataladi. Detaillar jumlasiga bolt, gayka, shesternya, shkiv, val, porshen, shatun va boshqa qismlar kiradi. Har bir detalni mahsus yo`l bilan hisoblab topilgan o`lshamlar bo`ladi. Masalan, to`quv avtomatining tirsakli valini olsak, bu val ma`lum uzunlikka, diamerga, tirsak radiusiga va og`irlikka ega.

Bir yoki bir nesha detalning mustahkam birikmasi zveno bo`ladi (8 - shakl). Zveno hususiy holi detaldir. 4.7 - shakl a da shatun zvenosi

tasvirlangan. Bu zveno asosan ush qismdan yani (ush detaldan): Shulardan shatun (1), bolt (2) va gayka (3) lardan iborat. 4.7 – shakl b da shu zvenoning kinematik shemasi tasvirlangan.



4.7- shakl. a) Zveno. b) Kinematik shema.


Mexanizmlar nazariyasini o`rganishda, asosan, mexanizmlarning kinematik shemasini tuza bili shva u bilan ishlash katta ahamiyatga egadir. Odatda, mexanizm tarkibidagi zvenolar (yoki detallar) va kinematik juftlar konstruktiv jihatdan ishlab shiqilgan va texnologik prosessga moslashtirilgan mahsus shakllarga (konfiguratsiyalarga) muvofiqlashtiriladi.

Odatda, mexanizm tarkibidagi zvenolar (yoki detallar) va kinematik juftlar konstruktiv jihatdan ishlab shiqilgan va texnologik prosessga moslashtirilgan mahsus shakllarga (konfiguratsiyalarga) muvofiqlashtiriladi.

4.Zvenolar va kinematik juftlarni shartli belgilash.

1. Zvenolarni belgilash


- 1) Ikki kinematik juft hosil qiluvchi harakatlanuvshi zveno (4.8- shakl, a);
- 2) ushta kinematik juft hosil qiluvchi harakatlanuvshi zveno (4.8-shakl, b, v)
- 3) qo`zg`almas zveno (4.8-shakl g, d).



4.8 – shakl .

2. Quyi kinematik juftlarni belgilash.


- 1) Ikkita harakatlanuvshi zvenoning aylanma kinematik juft hosil qilishi (4.9 - shakl, a);
- 2) quzg`almas va quzg`aluvshan zvenolarning aylanma kinematik juft hosil qilishi (4.9 – shakl, b, v)
- 3) qo`zg`aluvshan zvenolarning ilgarilama kinematik juft hosil qilishi (10 - shakl, g, d);
- 4) qo`zg`aluvshan va qo`zg`almas zvenolarning ilgarilama kinematik juft hosil qilishi (4.9 - shakl, e, j, z).



4.9 - shakl

3. Oliy kinematik juftlarni belgilash.

- 1) tishli g'ildiraklarda tishlarning kinematik bog'lanishi (4.10- shakl, a);
- 2) kulashokli mexanizmlarda zvenolarning kinematik bog'lanishi (4.10- shakl, b, v).



4.10 - shakl

Bir nesda zvenolarning kinematik juftlar vositasi bilan birikishidan (bog'lanishidan) hosil bo'lgan qo'zg'aluvshi sistema kinematik zanjir deb ataladi.

mexanizm shunday yopiq kinematik zanjirki, undagi bir yoki bir nesda zvenoga harakat berilganda qolgan zvenolar aniq harakat qiladi.

Ma`ruza ushun savollari.

1. erkinlik darajasi deganda nimani tushunasiz?
2. Jismning erkinlik darajasi neshta buladi?
3. Fazodagi har bir zveno vaziyati neshta koordinata orqali ifodalanadi?
4. Tekislikdagi sistemalar sistemasi neshta bog'lanish orqali aniqlanadi?
5. Kinematik juftlar tarkibidagi zvenolarning oniy nisbiy harakatlari bir – biriga bog'liq bo'ladimi?

Mavzu: KINEMATIK ZANJIRLAR VA ULARNING TURLARI.

Reja:

1. Kinematik zanjirlar va ularning turlari.

2. kinematik zanjirlarning erkinlik darajasi, tekislikda harakat qiluvchi mexanizmlarning tuzilish formulasi P. L. Chebishev formulasi.
3. Tekis mexanizmlarni hosil qilish, Mexanizmlarning Asur-Artobolevskiy klassifikatsiyasi.

Tayanch iboralar.

Klass, erkinlik darajasi, sistema, koordinata, yopiq kinematik zanjir, bog'lanish, klassifikatsiyasi, juftlar, oshiq va yopiq zanjir, detal.

1. Kinematik zanjirlar va ularning turlari

Bir nasha zvenoning kinematik juftlar vositasi bilan birikishidan (bog'lanishidan) hosil o'lgan qo'zg'aluvshi sistema kinematik zanjir deb ataladi. Masalan. 2 va 3 zvenolar V klass aylanma kinematik juft orqali V no'qtada bog'lanib, kinematik zanjir hosil qiladi (5.1 - shakl).



Shaklda ko'rsatilgan zvenolarda ikki hol bo'lishi mumkin: birinshidan, zvenolarning ikkalasi ham quzg'aluvshan bo'lib, bir-biriga nisbatan aylanma harakat qila oladi. Ikkinshidan zvenolarning biri quzg'almas bo'lib, ikkinshisi birinshisiga nisbatan (yoki, aksinsha, birinshisi ikkinshisiga nisbatan) V sharnir vositasida aylanma harakat qiladi.

Kinematik zanjirlar, tarkibidagi zvenolar hiliga ko'ra oddiy va murakkab zanjirlarga bo'linadi. Agao kinematik zanjir tarkibiga kiruvshi zvenolarning biri faqat ikkitadan kinematik juftga kirs, bunday zanjir **oddiy zanjir** deb ataladi.

Agar kinematik zanjir tarkibidagi zvenolarning biri ikkitadan ortiq kinematik juftga qushilsa, bunday zanjir **murakkab zanjir** deb ataladi (5.2 - shakl, a, b).


Shunday qilib 5.2 shakl a da hosil qilingan 4 zvenoli kinematik anjir oddiy oshiq zanjir bo'lib, uning O va F elementlari erkin elementlardir. 5.2 shakl, b da esa M, N, va Q lar erkin elementlar hisoblanadi.

5.2. shakldagi tasvirga kura, murakab kinematik zanjirlar tarkibida bazisli zvenolar bo'lib, bu zvenolar ush yerdan kinematik juftlarga qushilish imkoniyatiga egadir.



Zanjirlar oddiy va murakab turlarga bo'linibgina qolmay balki oshiq va yopiq kinematik zanjirlarga ham bo'linadi. oddiy va murakab oshiq zanjirlar 5.2

– shakl a va b da ko`rsatilgan. Kinematik zanjirlar tarkibiga kiruvshi har bir zveno eng kamida ikkita kinematik juftga qushilsa, bunday zanjirlar yopiq zanjirlar deb ataladi (5. 3 shakl).



Yopiq kinematik zanjirlarda erkin elementlarning bulmasligi shakldan kurinib turibdi. 5.3. a – shakldagi oddiy yopiq kinematik zanjir oltita zveno va oltita kinematik juftdan tashkil topgpn.

5.3. b – shakldagi murakab yopiq kinematik zanjirda zvenolar soni 7 ta, kinematik juftlar soni esa 8 ta, shunki A nuqtada 1,6,7 zvenolar kinematik juft hosil qilgan. bunday hollada A nuqtada ikkita kinematik juft bo`ladi.

5.2. Kinematik zanjirlarning erkinlik darajasi.

Kinematik zanjirlar bir nesha zvenoning kinematik juftlar vositasida birikishidan hosil bo`ladi.

1. Mexanizmning diogrammalarini chizish uchun mexanizmning 12 holat kurinishi chizish lozim buning uchun qo'yidagi ifoda orqali uzunlik masshtabi tanlab olingan ulcham asosida 12 holat chiziladi.

$$\mu_l = \frac{L_{OA}}{l_{OA}} \left(\frac{M}{MM} \right)$$

Bu erda L_{OA} – krivoshipning haqiqi ulchami

l_{OA} – chizma uchun tanlangan ixtiyoriy ulcham.

Zvenoning vaqt buyicha siljishi $S_v = S_v(t)$ grafigi quyidagi tartibda chiziladi.

A) T vaqt uchun ixtiyoriy kesma uzunligi $T = \overline{OM}$ ni tanlab, vaqt masshtabi - μ_t quyidagicha hisoblab topiladi.

$$\mu_t = \frac{T}{\overline{OM}} \text{ cek / MM}$$

B) Mexanizm nuqtasi grafikning tezlik masshtabi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$\mu_v = \frac{\mu_s}{H_1 \cdot \mu_t}; \quad \frac{M / \text{cek}}{MM}$$




Bu erda N_1 – tezlik grafigining qutbiy oraligi.

endiki bosqichda tezlik grafigini yana bir bor differensiallash yo'li orqali tezlanish masshtabini aniqlaymiz, tezlanish grafigining masshtabini qo'yidagi ifoda orqali aniqlaymiz.

$$\mu_a = \frac{\mu_v}{H_2 \cdot \mu_t}; \quad \frac{M / \text{cek}^2}{MM}$$

Bu erda N_2 – tezlanish grafigining qutbiy oraligi.

Mexanizmning qurilgan 12 holat qurinishdan foydalanib (B) nuqta uchun quyidagicha diagramalar quramiz.



6 – shakl.

6. MASALA.

Tashqi ilashmali normal tishli va ikki gildirakning evolventoviy profilini parametrlarini aniqlash.


a) Turli xil ko'rinishdagi tishli uzatmalar bilan tanishish ularning parametrlarini aniqlash.

g) Aniqlangan parametrlar asosida tishning ilashishdagi evolvent profilini qurish.

NAMUNA -6.

Mexanizm gildiraklari tishlarini soni $z_1 = 12$, $z_2 = 18$ tishli gildiraklar moduli $m = 12$ mm ga teng.

7, a - shaklda tasvirlangan tashqi ilashmali reduktorning yetaklovchi va yetaklanuvchi gildiraklarning parametrlari aniqlansin.



7- shakl:

H i s o b l a s h t a r t i b i.

7- shakl (A) sxemasida berilgan reduktorning etaklovchi gildirakning tishlar soni $z = 12$ ga etaklanuvchi gildirakning tishlar soni $z = 18$ ga va tishlar moduli esa $m = 12$ mm ga teng.

1) Hsoblash uchun tishli gildiraklarning bo'lish aylanasi radiuslarini aniqlaymiz.

z_1 - yetaklovchi gildirakning bo'lish aylanasi radiusi:

$$r_1 = \frac{m \cdot z_1}{2} = \frac{12 \cdot 12}{2} = 72 \text{ [mm]}.$$

2) yetaklanuvchi gildirakning bulish aylana radiusi:

$$r_2 = \frac{m \cdot z_2}{2} = \frac{12 \cdot 18}{2} = 108 \text{ [mm]}.$$

3). Reduktor sxemasining uzunlik masshtabi koeffisienti - μ_l ni tanlaymiz:

$$\mu_l = \frac{\bar{r}_1}{r_1} = \frac{0,072}{144} = 0,0005 \left[\frac{\text{m}}{\text{mm}} \right].$$

Oddiy tishli uzatma gildiraklarining asosiy geometrik parametrlarini hisoblaymiz.

4). Asosiy aylanalarning radiuslari:

$$r_{B1} = r_1 \cdot \cos \alpha 20^\circ = 72 \cdot \cos \alpha 20^\circ = 67,68 \text{ [mm]}.$$

$$r_{B2} = r_2 \cdot \cos \alpha 20^\circ = 108 \cdot \cos \alpha 20^\circ = 103,1 \text{ [mm]}.$$

5) Gildirak tishlarining balandligi:

$$h_1 = h_2 = 2,25 \cdot m = 2,25 \cdot 12 = 27 \text{ [mm]}.$$

6) Tish kalagi balandligi:

$$h_{a1} = h_{a2} = h_a^* \cdot m = 1 \cdot 12 = 12 \text{ [mm]}.$$

bu erda $h_a^* = 1$ ga teng.

7) Tish oyogi balandligi:

$$h_{f1} = h_{f2} = 1,25 \cdot m = 1,25 \cdot 12 = 15 \text{ [mm]}.$$

8) Ilashmaning boshlangich aylana yoyi bo'yicha qadami:

$$P = \pi \cdot m = 3,14 \cdot 12 = 37,68 \text{ [mm]}.$$

9) Tishning boshlangich aylana yoyi bo'yicha qalinligi:

$$S_1 = S_2 = 0,5 \cdot P = 0,5 \cdot 37,68 = 18,84 \text{ [mm]}.$$

10) Ikki tishning boshlangich aylana yoyi bo'yicha oraligi:

$$e_1 = e_2 = 0,5 \cdot P = 0,5 \cdot 37,68 = 18,84 \text{ [mm]}.$$

11) gildirak tishlarining chiqiqlari aylanasi radiuslari:

$$r_{a1} = r_1 + h_{a1} = 72 + 12 = 84 \text{ [mm]},$$

$$r_{a2} = r_2 + h_{a2} = 108 + 12 = 120 \text{ [mm]}.$$

12) Gildirak tishlarining botiqligi aylanasi radiuslari:

$$r_{f1} = r_1 - h_{f1} = 72 - 15 = 57 \text{ [mm]},$$

$$r_{f2} = r_2 - h_{f2} = 108 - 15 = 93 \text{ [mm]}.$$

13) Galtelning yumoloqlanish radiusi:

$$\rho_f = 0,3 \cdot m = 0,3 \cdot 12 = 3,6 \text{ [mm]}.$$

7. MASALA.

Tashqi ilashmali evolventa profili gildirak tishlarining aniqlangan parametrlariga asosan qurish.

NAMUNA -7.

Tashqi ilashmali evolventa profili gildirak profili quyidagi ketma ketlikda bajariladi.

1). Chizmaning uzunlik masshtabi - μ_l ni tanlaymiz bunda tishning chizmadagi balandligi $h > 50 \text{ mm}$ dan kata bo'lishi kerak.

$$\mu_l = \frac{h}{h} = \frac{0,027}{54} = 0,0005 \left[\frac{M}{MM} \right].$$

Bu masshtab 2:1 ga tugri keladi, shu sabali chizmaning barcha o'lchamlari ikki baravariga kattalashtiriladi.

2). Tishli ilashmali gildiraklar o'qlari orasidagi masofani quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$a_w = \frac{z_1 \cdot m}{2} + \frac{z_2 \cdot m}{2} = \frac{D_1 + D_2}{2} = r_1 + r_2 = 72 + 108 = 180 [MM].$$

3). Aniqlangan o'qlar oraligi masofasini masshtab orqali bo'lib haqiqiy chizma ulchamini aniqlaymiz:

$$\bar{a}_w = \frac{a_w}{\mu_l} = \frac{0,18}{0,0005} = 360 [MM]$$

4). O_1 va O_2 markazlar to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi, bu markazlardan

$$\bar{r}_1 = \frac{r_1}{\mu_l} = \frac{0,072}{0,0005} = 144 [MM]$$

$$\bar{r}_2 = \frac{r_2}{\mu_l} = \frac{0,108}{0,0005} = 216 [MM]$$

Ulchamga ega bo'lgan radiuslar bilan bo'lish aylanalari chiziladi.

5). Ikki aylananing

$$\bar{r}_{B1} = \frac{r_{B1}}{\mu_l} = \frac{0,6768}{0,0005} = 135,36 [MM]$$

$$\bar{r}_{B2} = \frac{r_{B2}}{\mu_l} = \frac{0,10304}{0,0005} = 206,08 [MM]$$

radiuslar bilan asosiy aylanalar chiziladi.

6) Qutub no'qtasi R dan $\tau - \tau$ urinmaga $\alpha - 20^\circ$ burchak ostida asosiy aylanalarga umumiy bo'lgan urunma chizigi N – N o'tkaziladi. Bu urinma chiziq asosiy aylanalar r_{v1} va r_{v2} da urinish nuqtalari A va B ni beradi. Bunda $\overline{AB}$ kesma nazariy ilashish chizigi hisoblanadi.

7) Gildirakning O_1 va O_2 markazlaridan quyidagi radius bilan gildirak tishlarining chiqqilari chiziladi.

$$\bar{r}_{a1} = \frac{r_{a1}}{\mu_l} = \frac{0,084}{0,0005} = 168 [MM]$$

$$\bar{r}_{a2} = \frac{r_{a2}}{\mu_l} = \frac{0,120}{0,0005} = 240 [MM]$$

8) Gildirakning O_1 va O_2 markazlaridan Yana bir radius yani gildirak tishlarini botiqlar aylanalari chiziladi.

$$\bar{r}_{f2} = \frac{r_{f2}}{\mu_l} = \frac{0,093}{0,0005} = 186 [MM]$$


9) Qolgan barcha ulchamlarning ham shu kabi bir xil birlikka yoki o'lchamga keltirib olamiz.

$$\bar{h}_{f1} = \bar{h}_{f2} = \frac{h_{f1}}{\mu_l} = \frac{0,015}{0,0005} = 30 [MM].$$

$$h_{a1} = h_{a2} = \frac{h_{a1}}{\mu_1} = \frac{0,012}{0,0005} = 24 [mm]$$

$$\bar{\rho} = \frac{\rho}{\mu_1} = \frac{0,03768}{0,0005} = 75,36 [mm]$$

10) Ilashish chizigi N – N ni ikki gildirakning asosiy aylanalaridan dumalatib, qutib nuqtasi - R dan o`tuvchi evolventa profili chiziladi.



8- shakl:

8. MASALA.

Mexanizm zvenolarining inerciya kuchlarini aniqlang.

A). Zvenolarning massalarini aniqlash ifodasini keltiring.

B). Zvenolarning ogirlik kuchlarini qiymatlarini aniqlang.

NAMUNA -8.

Mexanizm zvenolarining inerciya kuchlarini qo'yidagi ketma – ketlikda aniqlanadi.

1. Agar richagli zvenolarning massalari berilmagan bulsa u holda zvenolarning massalari qiymati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$m = q \cdot l \text{ [kg]},$$

2. bu erda q – richagning uzunlik buyicha massasi (zveno uzunligining har 1 metri massasi qiymatini 5 kg/m ga teng deb olish tavsiya etiladi);

l – zvenoning uzunligi, m;

3. Mexanizmnin barcha zvenolari massalari berilganligi tufayli ularni hisoblash tavsiya etilmaydi shu sababli zvenolarning ogirlik kuchlari tugridan – tugri quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$G_1 = m_1 \cdot g = 0,7 \text{ kg} \cdot 9,81 \text{ n/kg} = 6,867 \text{ [n]}$$

$$G_2 = m_2 \cdot g = 1,2 \text{ kg} \cdot 9,81 \text{ n/kg} = 11,772 \text{ [n]}$$

$$G_3 = m_3 \cdot g = 0,8 \text{ kg} \cdot 9,81 \text{ n/kg} = 7,848 \text{ [n]}$$

$$G_4 = m_4 \cdot g = 0,7 \text{ kg} \cdot 9,81 \text{ n/kg} = 6,867 \text{ [n]}$$

$$G_5 = m_5 \cdot g = 1,5 \text{ kg} \cdot 9,81 \text{ n/kg} = 14,715 \text{ [n]}$$

4. Qolgan qiymatlarni aniqlash maqsadida K_a – tezlanishlar rejasini masshtab koefficientini tanlab olish lozim buni quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz.

$$K_a = \frac{a_{A1}}{\pi a_1} \left[\frac{\mathcal{M} / \text{cek}^2}{\text{mm}} \right];$$

Bu yerda a_{A1} krivoshipdagi A_1 nuqtaning tezlanishi bo'lib buni qo'yidagicha aniqlaymiz:

$$a_{A1} = a_{A1O1}^n = \omega_1^2 \cdot O_1A \left[\frac{\mathcal{M}}{\text{cek}^2} \right]$$

Bu erda $\omega_1 = \frac{\pi n}{30} \left[\frac{\text{pad}}{\text{cek}} \right]$ orqali aniqlanadi.

πa_1 - ixtiyoriy son bo'lib chizmaning chiqishiga qarab tanlanadi.

$$\text{Olingan natijalarga kura } K_a = 0,176 \left[\frac{\mathcal{M} / \text{cek}^2}{\text{mm}} \right];$$

ga teng bo'ladi.

5. Kuchlarning zveno markazlariga bo'lgan ta'siri kuchlarini quyidagicha aniqlaymiz.

$$\alpha_{s_1} = \pi_{s_1} \cdot K_a = 18 \text{ мм} \cdot 0,176 \frac{\text{м/с}^2}{\text{мм}} = 3,168 \left[\frac{\text{м}}{\text{с}^2} \right]$$

$$\alpha_{s_2} = \pi_{s_2} \cdot K_a = 28 \text{ мм} \cdot 0,176 \frac{\text{м/с}^2}{\text{мм}} = 5,928 \left[\frac{\text{м}}{\text{с}^2} \right]$$

$$\alpha_{s_3} = \pi_{s_3} \cdot K_a = 18 \text{ мм} \cdot 0,176 \frac{\text{м/с}^2}{\text{мм}} = 3,168 \left[\frac{\text{м}}{\text{с}^2} \right]$$

$$\alpha_{s_4} = \pi_{s_4} \cdot K_a = 50 \text{ мм} \cdot 0,176 \frac{\text{м/с}^2}{\text{мм}} = 8,8 \left[\frac{\text{м}}{\text{с}^2} \right]$$

$$\alpha_{s_5} = \pi_{s_5} \cdot K_a = 50 \text{ мм} \cdot 0,176 \frac{\text{м/с}^2}{\text{мм}} = 8,8 \left[\frac{\text{м}}{\text{с}^2} \right]$$

6. mexanizm zvenolaridagi inersiya kuchlarini qiymatlarini aniqlash talab etilgan bo`lib ularni quyidagi ifodalar orqali aniqlaymiz.

$$R_{u1} = m_1 \cdot \alpha_{s_1} = 0,7 \text{ kg} \cdot 3,168 \text{ м/с}^2 = 2,21 \text{ [н]}$$

$$R_{u2} = m_2 \cdot \alpha_{s_2} = 1,2 \text{ kg} \cdot 5,928 \text{ м/с}^2 = 7,114 \text{ [н]}$$

$$R_{u3} = m_3 \cdot \alpha_{s_3} = 0,8 \text{ kg} \cdot 3,168 \text{ м/с}^2 = 2,534 \text{ [н]}$$

$$R_{u4} = m_4 \cdot \alpha_{s_4} = 0,7 \text{ kg} \cdot 8,8 \text{ м/с}^2 = 6,16 \text{ [н]}$$

$$R_{u5} = m_5 \cdot \alpha_{s_5} = 1,5 \text{ kg} \cdot 8,8 \text{ м/с}^2 = 13,2 \text{ [н]}$$

7. Mexanizm zvenolarida hosil buladigan inersiya momentlari quyidagi ifoda orqali aniqlanadi.

$$\mu_{u2} = \varepsilon_2 \cdot J_{S2} ;$$


$$\text{bu erda } \varepsilon_2 = \varepsilon_2 = \frac{a_{ab}^r}{l_{ab}} \frac{7,744}{0,1} = 77,44 \left[\frac{\text{рад}}{\text{сек}^2} \right] \text{ ga teng bo`lib bu qiymat}$$

mexanizmning tezlanish rejasidan olinadi.

8. Aniqlangan qiymatga asosan inersiya momenti quyidagicha aniqlanadi.


$$\mu_{u2} = \varepsilon_2 \cdot J_{S2} = 77,44 \cdot 0,07 = 5,42 \text{ [н м]}.$$

Talabalarga mo`ljallab beriladigan variantlar quyida keltirilgan bo`lib variantlar talabalarga rahbar tomonidan jurnal raqami yoki rahbar ixtiyori bilan belgilab beriladi.




1- shakl

№	n_1 ayl/min	L OA m	L AB m	L AC m	ϕ_1 grad
1	150	0,05	0,2	0,07	30
2	100	0,06	0,25	0,06	35
3	130	0,07	0,3	0,055	40




2- shakl

N _o	n ₁ ayl /min	L OA m	L AB m	L AC m	φ ₁ grad	h m
1	150	0,05	0,2	0,07	30	0,01
2	100	0,06	0,25	0,06	35	0,015
3	130	0,07	0,3	0,055	40	0,02



3 - shakl


N _o	n ₁ ayl/min	L OA m	L AB m	L VC m	φ ₁ grad
1	130	0,05	0,23	0,03	30
2	120	0,06	0,26	0,04	35
3	100	0,07	0,28	0,025	40




4 – shakl

N _o	n ₁ ayl/ min	L OA m	L AB m	L AC M	φ ₁ grad
1	100	0,04	0,33	0,035	30
2	150	0,05	0,36	0,045	35
3	130	0,06	0,38	0,03	40

N _o	n ₁ ayl/ min	L OA m	L AB m	φ ₁ grad
1	70	0,05	0,35	30
2	80	0,06	0,40	35
3	85	0,07	0,45	40




5 – shakl




6 – shakl

N _o	n ₁ ayl/ min	L OA m	L AB m	L BC m	L O ₂ S m	L VO ₂ m	L X m	φ ₁ grad
1	120	0,04	0,35	0,25	0,15	0,25	0,07	30
2	110	0,05	0,45	0,30	0,20	0,30	0,08	35
3	120	0,06	0,35	0,25	0,15	0,25	0,09	40




7 – shakl

N _o	n ₁ ayl/ min	L OA m	L AB m	L BC m	L O ₂ S m	L VO ₂ m	L X m	φ ₁ grad	L h m
1	120	0,04	0,35	0,25	0,15	0,25	0,07	30	0,02
2	110	0,05	0,45	0,30	0,20	0,30	0,08	35	0,03
3	120	0,06	0,35	0,25	0,15	0,25	0,09	40	0,035




8 - shakl

N _o	n ₁ ayl min	OA m	AB m	BC m	O ₂ S m	VO ₂ m	L X m	φ ₁ grad	L h m	CD m
1	100	0,03	0,3	0,25	0,15	0,25	0,05	30	0,02	0,05
2	130	0,04	0,4	0,30	0,20	0,30	0,06	35	0,03	0,06
3	120	0,05	0,3	0,25	0,15	0,25	0,06	40	0,035	0,04



9 – shakl


N _o	n ₁ ayl min	OA m	AB M	BC m	O ₂ S m	BO ₂ m	L X m	φ ₁ grad	SD m
1	125	0,04	0,35	0,25	0,15	0,25	0,07	30	0,04
2	115	0,05	0,45	0,30	0,20	0,30	0,08	35	0,05
3	100	0,06	0,35	0,25	0,15	0,25	0,09	40	0,07



10 – shakl

N _o	n ₁ ayl min	O ₁ A m	AB M	O ₁ B m	AC m	AD m	CD m	O ₂ D m	X m
1	100	0,04	0,04	0,04	0,15	0,25	0,15	0,14	0,35
2	110	0,05	0,05	0,05	0,20	0,30	0,20	0,15	0,40
3	120	0,06	0,06	0,06	0,15	0,25	0,15	0,16	0,3

Tishli ilashmani kinematik sxemasi



Tishli ilashmali masalalarniechish uchun tayyorlangan variantlar.

№	Z ₁	Z ₂	m	n	№	Z ₁	Z ₂	m	n
	dona	dona	Mm	ay/ min		dona	dona	mm	ay/ min
1	13	14	6	150	16	14	13	6	80
2	15	26	8	140	17	26	15	8	70
3	17	28	4,5	130	18	28	17	4,5	100
4	19	26	4	120	19	26	19	4	110
5	13	26	5,5	110	20	26	13	5,5	90
6	11	22	6,5	140	21	22	11	6,5	70
7	15	24	8	130	22	24	15	8	60
8	17	28	4	140	23	28	17	4	90
9	13	26	6	150	24	26	13	6	80
10	11	22	6	160	25	22	11	6	50
11	15	30	65	110	26	30	15	65	60
12	21	32	4	100	27	32	21	4	100
13	17	28	6,5	120	28	28	17	6,5	80
14	15	30	3,5	130	29	30	15	3,5	70
15	13	26	6	110	30	26	13	6	100

Tishli ilashmalarni loyhalash uchun variantlar talabalarga raxbar tomonidan belgilanadi va shu raxbar kursatmasiga asosan talabalar o`z variantlari ustida Amaliy topshiriqlarini bajarishlari lozim..

Mexanizmlarni kuchlar analizi bo`yicha tekshirish topshiriqlari quyidagi jadvalda keltirilgan bo`lib, bunda har bir mexanizm uchun alohida – alohida variantlar qiymatlari keltirilgan.

№ shakl	Zvenolarning ogirliklari [kg]					Zvenolarning Inerciya momentlari [kg.m ²]				
	m ₁	m ₂	m ₃	m ₄	m ₅	Js ₁	Js ₂	Js ₃	Js ₄	Js ₅
1	0,6	1,2	0,8	-	-	0,11	0,13	-	-	-
	0,8	1,3	1,5	-	-	0,13	0,17	-	-	-
	1,6	1,4	0,6	-	-	0,13	0,14	-	-	-
	0,9	1,6	0,9	-	-	0,15	0,11	-	-	-
2	0,4	1,4	0,6	-	-	0,13	0,11	-	-	-
	0,6	1,2	1,2	-	-	0,10	0,12	-	-	-
	1,1	1,1	0,8	-	-	0,11	0,10	-	-	-
	0,9	1,2	0,7	-	-	0,12	0,12	-	-	-
3	0,8	1,1	0,6	-	-	0,12	0,11	-	-	-
	0,6	1,1	1,1	-	-	0,15	0,13	-	-	-
	1,2	1,2	0,9	-	-	0,11	0,12	-	-	-
	0,7	1,3	0,6	-	-	0,10	0,13	-	-	-
4	0,5	1,0	0,6	-	-	0,13	0,10	-	-	-
	0,8	1,1	1,2	-	-	0,12	0,11	-	-	-
	1,0	1,4	0,9	-	-	0,10	0,14	-	-	-

	0,9	1,0	0,8	-	-			0,13	0,12	-	-	-	
5	0,7	1,1	0,8	-	-			0,13	0,12	-	-	-	
	0,6	1,2	1,2	-	-			0,12	0,11	-	-	-	
	1,1	1,1	0,9	-	-			0,10	0,12	-	-	-	
	0,6	1,2	0,7	-	-			0,13	0,11	-	-	-	
	0,8	1,1	0,6	-	-			0,12	0,11	0,18	-	-	
6	0,6	1,1	1,1	-	-			0,15	0,13	0,21	-	-	
	1,2	1,2	0,9	-	-			0,11	0,12	0,23	-	-	
	0,7	1,3	0,6	-	-			0,10	0,13	0,25	-	-	
	0,8	1,1	0,6	-	-			0,12	0,11	0,21	-	-	
7	0,6	1,1	1,1	-	-			0,15	1,3	0,23	-	-	
	1,2	1,2	0,9	-	-			0,11	0,12	0,19	-	-	
	0,7	1,3	0,6	-	-			0,10	0,13	0,26	-	-	
	0,8	1,1	0,6	0,7	1,1			0,12	0,11	0,19	0,23	-	
8	0,6	1,1	1,1	1,1	1,5			0,15	0,13	0,22	0,21	-	
	1,2	1,2	0,9	1,3	0,8			0,11	0,12	0,20	0,17	-	
	0,7	1,3	0,6	0,9	0,6			0,10	0,13	0,23	0,15	-	
	0,8	1,1	0,6	1,3	0,7			0,12	0,11	0,17	0,21	-	
9	0,6	1,1	1,1	0,6	1,3			0,15	0,13	0,21	0,23	-	
	1,2	1,2	0,9	1,4	1,1			0,11	0,12	0,23	0,13	-	
	0,7	1,3	0,6	0,8	0,9			0,10	0,13	0,21	0,12	-	
	0,5	1,0	0,6	-	-			0,11	0,13	0,25	-	-	
10	0,6	1,2	1,2	-	-			0,13	0,17	0,22	-	-	
	1,2	1,1	0,6	-	-			0,13	0,14	0,21	-	-	
	0,7	1,2	0,8	-	-			0,15	0,11	0,18	-	-	
	0,4	1,1	0,6	-	-			0,13	0,15	0,21	-	-	
11	0,6	1,2	1,2	-	-			0,14	0,14	0,19	-	-	
	1,1	1,3	0,5	-	-			0,13	0,12	0,14	-	-	
	0,6	1,3	0,7	-	-			0,11	0,13	0,17	-	-	
	0,6	1,3	0,6	-	-			0,10	0,13	0,19	-	-	
12	0,8	1,1	1,1	-	-			0,13	0,12	0,22	-	-	
	1,1	1,4	0,7	-	-			0,14	0,12	0,24	-	-	
	0,9	1,2	0,6	-	-			0,13	0,15	0,17	-	-	
	0,5	1,0	0,6	-	-			0,17	0,15	0,23	-	-	
13	0,7	1,2	1,1	-	-			0,16	0,16	0,24	-	-	
	1,2	1,0	0,9	-	-			0,12	0,14	0,22	-	-	
	0,9	1,2	0,9	-	-			0,14	0,18	0,21	-	-	
	0,7	1,1	0,7	-	-			0,13	0,12	0,25	-	-	
14	0,8	1,1	1,1	-	-			0,12	0,11	0,19	-	-	
	1,4	1,4	0,9	-	-			0,10	0,12	0,13	-	-	
	0,6	1,1	0,8	-	-			0,13	0,11	0,18	-	-	
Zvenolarning ogirliklari [kg]								Zvenolarning inerciya momentlari [kg.m ²]					
	m ₁	m ₂	m ₃	m ₄	m ₅	m ₆	m ₇	Js ₁	Js ₂	Js ₃	Js ₄	Js ₅	Js ₆
15	0,7	1,4	0,6	1,2	0,8			0,12	0,11	0,18	0,25	-	
	0,9	1,3	1,2	0,9	0,7			0,15	0,13	0,21	0,21	-	
	1,1	1,5	0,9	0,7	1,2			0,11	0,12	0,23	0,19	-	
	0,7	1,2	0,8	1,2	1,3			0,10	0,13	0,25	0,20	-	
16	0,8	1,1	0,6	-	-			0,22	0,16	0,22	-	-	
	0,6	1,3	1,2	-	-			0,25	0,15	0,22	-	-	
	1,1	1,4	0,7	-	-			0,21	0,17	0,23	-	-	
	0,7	1,1	0,8	-	-			0,10	0,13	0,22	-	-	
17	0,7	1,2	0,9	0,7	1,3			0,20	0,17	0,15	0,21	0,19	
	0,8	1,3	1,4	1,5	1,2			0,12	0,15	0,24	0,26	20	
	1,3	1,4	0,9	1,1	0,8			0,14	0,14	0,21	0,15	0,22	
	0,9	1,1	0,7	0,7	0,9			0,19	0,15	0,23	0,17	0,25	
18	0,8	1,1	0,6	-	-			0,12	0,11	0,17	-	-	
	0,6	1,1	1,1	-	-			0,15	0,13	0,21	-	-	
	1,2	1,2	0,9	-	-			0,11	0,12	0,23	-	-	
	0,7	1,3	0,6	-	-			0,10	0,13	0,21	-	-	

19	0,5	1,0	0,6	1,2	0,9			0,11	0,13	-	0,25	-	
	0,6	1,2	1,2	0,8	1,1			0,13	0,17	-	0,22	-	
	1,2	1,1	0,6	1,2	1,1			0,13	0,14	-	0,21	-	
	0,7	1,2	0,8	0,7	1,5			0,15	0,11	-	0,18	-	
20	0,7	1,1	0,6	0,9	1,2			0,13	0,15	0,23	0,21	-	
	0,6	1,2	1,2	0,7	1,3			0,14	0,14	0,21	0,19	-	
	1,1	1,3	0,5	0,5	1,2			0,13	0,12	0,19	0,14	-	
	0,6	1,3	0,7	1,1	1,5			0,11	0,13	0,24	0,17	-	

Tajriba mashg'uloti mavzulari

№ 1 T A J R I B A I S H.

TEKIS MEXANIZIMLARNING STRUKTURAVIY TAHLILI, STRUKTURAVIY SIXIMALARINI TUZISH.

I. Ishning maqsadi.

Talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, mexanizmlarning kinematik, strukturoviy tuzilishlari va mexanizm-larning shartli belgilanishlari bilan yaqindan tanishtirish. Talabalarga mexanizmlarning erkinlik darajasini aniqlash va mexanizmlarning tiplarga, sinflarga hamda Assur gruppalariga ajratishdan iborat.

II. Mashg'ulot uchun jihozlar.

- A) turli hil mexanizm maketlari.
- B) Turli hil mehanizi kinematik shemalari.
- V) mexanizmlar tasvirlari tushurilgan devoriy gazetalar.

III. Umumiy ma'lumotlar.


Bir yoki bir nechta jism harakatini boshqa jismlarning aniq qonuniyatlariga amal qiluvchi harakatiga aylantirib beruvchi qurilma **mexanizm** deb ataladi. Bir nechta mexanizmlardan tashkil topgpn qurilmaga **mashina** deb ataladi. mexanizmlar esa **zvenolardan** tashkil topgan. **Mashina** tarkibida buladigan yagona detal` yoki bir nechta detal`ning uzaro quzgalmas birikmasi **zveno** deyiladi. Zvenolar bir – biriga uzaro kenimatik juftlar aro boglanadi.

Kinematik juft deganda, bir – biri bilan ilashish jarayonida ikki zvenoning harakatlanishi uchunimkon yaratib beradigan boglanishga aytiladi. Boglanish elementlari **sirt**, **chiziq** yoki **nuqta** bulishi mumkin.

Kinematik juftlar boglanish turiga qarab **quyi** yoki **oliy** kinematik juftlarga bulinadi. Boglanish elementi **sirt** yoki **yuza** bulsa, Bunday kinematik juft **quyi kinematik juft** deyiladi (1 - shakl). Agar boglanish kinematik juftlarda **nuqta** yoki **chiziqlar** orqali amalga oshgan bulsa bunday kinematik juftlar **oliy kinematik juftlar** deyib ataladi (2-shakl).

Mashina va uning mexanizmlari tarkibidagi zvenolarning kinematik juftlar orqali boglangan gruppasi **kinematik zanjir** deb ataladi.

Zvenolar harakatlanish tarkibiga kura **etakchi** va **etaklanuvchi** zvenolarga bulinadi. harakat qonunini belgilagan zveno, **etakchi** yoki **bosh zveno** deb ataladi.



1-shakl 2 - shakl

Quyi kinematik juft Oliy kinematik juft


mexanizmdagi etakchi zvenolar aniq holati etaklanuvchi zvenolarning aniq holatini belgilaydi. mexanizmning tuzilishini tekshirish uchun uning shemasini chizish kifoya.

Mnhanizm shemasini deb, mexanizm zvenolari va kinematik juftlarini ulchamlariga rioya qilmagan holda, shartli belgilar orqali tasvirlanishiga aytiladi. Ulchamlariga rioya qilingan shema kinematik shema deb ataladi.

Mnhanizmning kinematik juftlarini va ularning zvenolarini shartli ravishda belgilash lozim.

1. Zvenolarni belgilash.

A) Ikkita yoki uchta kinematik juft hosil qiluvchi harakatlanuvchi zvenolar. (3 – shakl a, b, v).




3 – shakl

2. Quyi kinematik juftlarni belgilash.

a) Ikkita harakatlanuvchi zveno aylanma kinematik juft hosil qilish (4 - shakl)

b) Quzgalmas va quzgaluvchan zvenolarning aylanma kinematik juft hosil qilishi (5 – shakl a, b)



4- shakl. 5- shakl.

v) Quzgalmas zvenolarning ilgarilama qaytar harakatdagi kinematik juftlik hosil qilishi (6 – shakl a, b)




a) b)

6 – shakl.

g) kuzgaluvchan va quzgalmas zvenolarning ilgarilama va qaytar harakat qiluvchi kinematik juftlik hosil qilishi (7 – shakl a, b, v)


a) b) v)



7 – shakl.

3 – Oliy kinematik juftlarni belgilash.


a) Tishli gildiraklarda tishlarning kinematik boglanishi



(8 - shakl).

b) Kulachokli mexanizmlarda zvenolarning boglanishi (9 – shakl a, b).

a) b)




9 – shakl.

har bir harakatda buladigan mexanizm va ular tarkibida bulgan zvenolarni tekshirish lozim. Bularni tekshirish dovrida asosan tekislikda joylashgan erkin zvenolarning holati uchta koordinata ulchami bilan belgilanadi. Zvenolar koordinata uqlari buo`yicha ilgarilanma – qaytar va tekislikda perpendikulyar o`q atrofida aylanma harakat qilishi lozim.


Tekislikda joylashgan zveno boshqa bir zveno bilan kinematik juft orqali boglanadi. Bunda zvenoning koordinata tekisligidagi ekinligi ma`lum darajada kamayadi . (10 - shakl)da tasvirlangan zvenolar o`zaro nuqta yoki chiziq orqali boglangan, bunday kinematik juftlar zvenonig tekislik koordinata sistemasidagi bita erkinligini cheklamaydi. Bunday kinematik juftlar **oliy kinematik juftlar** deyiladi (10-shakl).

U



10-shakl

Tekis yuzalar yoki egri sirtlar orqali boglangan kinematik juftlarzvenoning tekis koordinata sistemasidagi ikkita erkinlikni cheklaydi. Bunday kinematik juftlar shartli ravishda **quyi kinematik juftlar** deyiladi (11-shakl a,b).



11-shakl

mexanizm yoki zvenolarni erkinlik darajasini aniqlashda ularni tekislikda yoki fazoda harakatlanayotgan jism deb qaraladi. harakatda bo`ladigan jism yoki mexanizm strukturaviy tuzilishi analiz qilinadi. Mihanizmning **strukturaviy analizi** deganda mexanizmning **ASSUR** gruppasiga ajratgan holda zvenolarning tartibini, klasslarini, uning qo`zgaluvchanlik darajasini aniqlash lozim bo`ladi.

IV – Ishning bajarish tartibi

- mexanizm va zvenolar bilan tanishish, mexanizmning zvenolarga ajiratish.
- berilgan mexanizmni kinematik shemasini chizish.
- mexanizm tarkibidagi etaklovchi va etaklanuvchi zvenolarning harakatini aniqlash.

V – Bajarilgan ish tugrisida hisobot

- a) Ishning maqsadini tushuntirish.
- b) mexanizm zvenolarini sxemalarini chizish.
- v) Talabaning o'z xulosasi.

№ 2 T A J R I B A I S H.

RICHAGLI MEXANIZIMLARNING KINEMATIK SINTEZI.

I. Ishning maqsadi.

Talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, mexanizmlarning kinematik, strukturoviy tuzilishlari va mexanizm-larning shartli belgilanishlari bilan yaqindan tanishtirish. Talabalarga mexanizmlarning erkinlik darajasini aniqlash va mexanizmlarning tiplarga, sinflarga hamda Assur gruppalariga ajratishdan iborat.

II. Mashg'ulot uchun jihozlar.

- A) turli hil mexanizm maketlari.
- B) Turli hil mehanizi kinematik shemalari.
- V) mexanizmlar tasvirlari tushurilgan devoriy gazetalar.

III. Umumiy ma'lumotlar.

1. Richagli mexanizmlar.

Rishagli mexanizm tarkibida faqat aylanma va ilgarilama quyi kinematik juftlari bo'lgan rishagli zvenolardan tuzilgan mexanizmdir. Rishagli mexanizmlar boshqa mexanizmlarga qaraganda katta kush va quvvat uzatadi va foydali ish koeffisientlari ham yuqori bo'ladi.

Rishagli mexanizm zvenolarini tayyorlash oson, ular mustahkamligi va eyilishga shidamliligi yuqori bo'lgani ushuni quvvati katta bo'lgan preslarda, bolg'alash mashinalarida keng ko'lamda ishlatilib kelmoqda.

Richagli mexanizmlarning turlari va ularning ishlatish sxemalari.

mexanizm shemasi deb undagi zvenolar va kinematik juftlarning masshtabga rioya qilinmagan holatda, shartli belgilashlar orqali grafik tasvirlanishiga aytiladi. Masshtab asosida qurilgan mexanizm shemasi **kinematik sxema** deb ataladi. Harakat qonunini belgilagan zveno odatda etakshi yoki **bosh zveno** deb ataladi. mexanizm tarkibidagi etakshi zvenoning aniq harakat holati qolgan zvenolarning aniq harakat holatini beradi. mexanizmnining


tuzilishini tekshirish ushun uning shemasini shizish kifoya. Mihanizmning kinematik va kinetostatik tekshirish ushun uning kinematik shemasi bulishi shart.

mexanizmlar turli alomatlariga kura, ajiraladi. Birinshi navbatda ular **Oliy** va **Qo`yi** juftlarga ajiraladi, bunday mexanizmlar **tekis** yoki **fazoviy** bulishi mumkin. Hamma harakatlanuvshi nuqtalari paralel tekisliklarda harakatlangan mexanizmlar **tekis mexanizmlar** deb ataladi.

Bug`inlarning harakatlanuvshi no`qtalari tekis bulmagan troektoriyalar shizib yoki uzaro kesishuvshi tekisliklarda joylashuvshi, harakat dovrida traektoriyalar shizib harakatlangan mexanizmlar **fazoviy mexanizmlar** deb ataladi.


Quyi juftlik mexanizmlar tarkibiga pashangli, ponali va vintli mexanizmlar, **Oliy juftlik mexanizmlar** tarkibiga kulashokli, tishli g`ildirakli, friksion, hrpovik mexanizmlar kiradi.

Mexanizmlar zvenolarining tuzilishlari.



2.1 – shakl.

Richagli mexanizmlar hozirgi zamon mashina va mexanizmlarida juda ko`p ishlatiladi. Bunday mexanizmlar sterjinli mexanizmlar deb ham ataladi. Biz hozir kuradigan oddiy rishagli mexanizmlar ikki zvenoli bo`lib, u quzg`almas stoyka va uning atrofida aylanuvshi qo`zg`aluvshi zvenodan iborat. (2.2- shakl).



2.2- shakl

Bu mexanizm asosan qo'zg'almas (1), va o'z o'qi atrofida aylanuvshi (2)-zvenodan krivoshipdan iborat. Bu turdagi mexanizmlar asosan hozirgi zamon mashinalarida va ratasion (aylanma harakat) qiladigan mashinalarda ko'p ishlatilib kelmoqda.

Masalan: elektr motorlari, trubinalar, ventilyatorlar shamol dvigatellari va boshqa shunga o'hshash mashinalar shular jumlasiga kiradi.

Rishagli mexanizmlar tuzilishiga ko'ra, bir nesha turlarga bulinadi.

2. Sharnirli to'rt zvenoli rishagli mexanizm. Buday mexanizmlar faqat aylanma kinematikaviy juftlar (sharnirlar) dan tuzilgan bo'lib, ular mustaqil mexanizmbo'lishi yoki murakab mexanizmlarning tarkibiy qismini tashkil etishi mumkin.


Ular kurinishi jihatidan bir nesha gruppaga bulinadi:

- a) ikki krivoshipli rishagli mexanizm;
- b) krivoship – karamisloli mexanizm;
- v) ikki karamisloli mexanizm;

Murakabroq rishagli mexanizmlar hozirgi zamon to'quv va yuk ko'tarish kranlarining asosiy mexanizmi bulgan va texnikaning turli tarmoqlarida ko'p ishlatiladigan 4-zvenoli mexanizmlardir (2.3- shakl).

- 1 - qo'zg'almas zveno
- 2 - tirsakli val (krivoship)
- 3 - shatun


2.3- shakl 4 - karamislo



Bu mexanizmlar asosan bir-biriga sharnerlar yordamida bog'langan bo'lib 4-zvenoli mexanizm hisoblanadi. Bu mexanizm tarkibida birta krivoship va birta koromislo bo'lgani ushun, bunday mexanizm to'rt zvenoli **sharnirli krivoship koromisloli mexanizm** deb ataladi.

3. Krivoshipli – polzunli mexanizm. Bu mexanizm, asosan, krivoship shatun 2, va qo'zg'almas yo'naltiruvshi bo'ylab ilgarilama - qaytar harakatlanuvshi zveno – polzun 3 dan iborat. 2 – shakldagi sharnirli to'rt zvenoli mexanizmdagi koromislo o'rniga polzun o'rnatib, uni qo'zg'almas yo'naltiruvshi bo'ylab harakatga keltirsak u holda bu mexanizm krivoship polzunli mexanizmga aylanadi (2.4- shakl).

Bu mexanizm yordamida krivoshipning aylanma harakati polzunning ilgarilama- qaytar harakkatga aylantiriladi. Bu mexanizm yordamida polzunning ilgarilama harakatini krivoshipning aylanma harakatiga aylantirish ham mumkin.



2.4-shakl. 1- qo'zg'almas zveno 3- shatun

2- krivoship 4- polzun

Zvenolarning quzgaluvchanlik darajasini aniqlashda

ChEBIShEV ning quyidagi formulasidan foydalaniladi.

$$W = 3n - 2p_5 - 1p_4$$


Bu erda W - tekis mexanizmning quzgaluvchanlik darajasi

n – tekis mexanizm tarkibidagi quzgaluvchi zvenolar soni

p_5 - 5 klass (tekislikda 2 - klass) kinematik juftlar soni

p_4 – 4 klass (tekislikda 1-klass) kinematik juftlar soni


Mexanizmning Assur gruppasiga ajratishda mexanizmning harakatga keltiradigan bosh zvenodan eng o'zoqda joylashgan zvenolarni ajiratgan holda amalga oshiriladi. Assur gruppasi bulishi uchun ikkita va undan ortiq zvenolardan tashkil topgan bo'lishi lozim.




12 – shakl

krivoship karomislash mexanizmi berilgan bulib avval uni ishlashini tekshirish maksadida Assur gruppasiga ajratib, tartibi, klass va kurinishlarini hamda

tuzilishi bilan kuzgaluvchanlik darajasini topamiz. Buning uchun berilgan mexanizmning ohirgi zvenosidan boshlab Assur gruppasiga ajratish lozim.




A) Bu gruppaning qo'zg'aluvchanlik darajasi 0 ga teng.



II-kurinish
II-tartib
II-sinf
II-(3,2)
 $W = 3n - 2R_5 - 1R_4 = 3 \cdot 2 - 2 \cdot 3 - 0 = 0$

B) Bu gruppaning kuzgaluvchanlik darajasi 0 ga teng.



I-kurinish
I-tartib
I-sinf
I-(0,1)
 $W = 3n - 2R_5 - 1R_4 = 3 \cdot 1 - 2 \cdot 1 = 1$

13- шакл

Bu gruppaning kuzgaluvchanlik darajasi 1 ga teng. endi umumiy tuzilish va kuzgaluvchanlik darajasini aniklaymiz: tuzilish formulasi quyidagicha buladi.

$$(0, 1) \rightarrow (3, 2) \rightarrow (4, 5)$$

Bu erda 0, 1, 2, 3, 4, 5 lar mexanizm tarkibidagi zvenolar ketma ketligi. Yuqorida keltirilgan mexanizmning quzgaluvchanlik darajasi esa, quyidagiga teng buladi.

$$W = 3n - 2R_5 - 1R_4 = 3 \cdot 5 - 2 \cdot 7 = 1$$

Bajarilgan ishlarga asosan mexanizmni quzgaluvchanlik darajasi

$W = 1$ ga tengligi aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan mexanizmning Assur gruppasiga ajratilgan zvenoning klasslari gruppadagi zvenolar soniga qarab belgilanadi. Shu gruppadagi zvenolarning tartibi esa zvenolarning quishisoniga qarab kursatiladi. Bundan tashqari Assur gruppasiga ajratilgan zvenolar uchun tuzilish

tushunchasi (vid mexanizmov) kiritilgan.

mexanizmning tuzulishini aniqlash va uni belgilashda ajratilgan gruppalaridagi harakatlanayotgan zvenolarning harakatlanish turiga qarab aniqlanadi (13 shakl a, b, v) larda kursatilgan.

mexanizm zvenolari Assur gruppasiga ajratilgandan sung mexanizmning bosh zvenosi yoki mexanizmning harakatga keltiradigan zveno Assur gruppasi bulaolmaydi shuning uchun mexanizm tushunchasini o`zida saqlab qoladi.

IV – Ishning bajarish tartibi

a) mexanizm va zvenolar bilan tanishish, mexanizmning zvenolarga ajratish, agar berilgan mexanizmدا oliy kinematik juft bo`lsa, uni quyi kinematik juftga ugirish.

b) berilgan mexanizmni kinematik shemasini chizish va masshtab tanlash.

v) mexanizm tarkibidagi etaklovchi va etaklanuvchi zvenolarning harakatini aniqlash, mexanizmning quzgaluvchanlik darajasini P.L.Chebeshev formulasi orqali aniqlash.

g) mexanizmning Assur gruppasiga ajratish, har bir Assur rupasini tartibini, sinfini, va kurinishini aniqlash.

d) mexanizmning umumiy kurinish formulasini Assur gruppasiga ajratilgan zvenolarga asoslangan holda keltirish.

V – Bajarilgan ish to`g`risida hisobot

a) Ishning maqsadini tushuntirish.

b) mexanizm ishlashi haqida qisqacha ma`lumot berish.

v) mexanizmning kinematik shemasini chizish, yuqorida keltirilgan

bash punkitni batafsil tushuntirish.

g) Talabaning o`z hulosasi.

VI – tekshirish uchun savollar

a) Mexanizm deb nimaga aytiladi.

b) kinematik juft deb nimaga aytiladi, va ular necha gruhga bulinadi.

v) qanday shemaga mexanizm shemasi deb ataladi.

g) qanday kinematik juftlik qo`yi kinematik juftlar deb ataladi.

d) mexanizmni Assur gruppasiga ajratish tartibi qanday tarzda amalga oshiriladi.

e) bosh mexanizm Assur gruppasi bulolmasligi sababi nimada.

№ 3 T A J R I B A I S H.

MEXANIZMNI TEZLIKLARINI TAJRIBA USULIDA ANIQLASH.

I - Ishning maqsadi.

Talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash, mexanizmlarning kinematik, strukturoviy tuzilishlari va mexanizmlarning tezlik rejalari orqali tekshirish buning bilan talabalarni nazariy olgan bilimlarini yanada mustahkamlashdan iborat.

II – Mashg'ulot uchun jihozlar.

- A) turli hil mexanizm maketlari.
- B) mehanizi kinematik shemalari.
- V) ulchash asboblari, chizgich va rezinka hamda cerkul va hisoblagichlar.

III - Umumiy ma'lumotlar.

mexanizmning istalgan holatini ajratib (rahbar tomonidan kursatilgan holat nazarda tutilgan) shu holat uchun tezlik rejalarini quriladi va ularni son qiymatlarini ham aniq olingan zvenolar ulchamlari asosida aniqlanadi.

Quyidagi holat 2- holati uchun tezlik rejalarini (planlari) tuzish quyidagi ketma – ketlik asosida amalga oshiriladi quriladi.

1. A-nuktaning tezligini quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz.

$$3. v_A = \omega_1 \cdot l_{OA} = 11,513 \cdot 0,045 = 0,52 \text{ m/s.}$$

2. Aniklangan A - no`qtaning tezligidan foydalanib, tezlik rejasi (plani) uchun masshtab tanlaymiz:

$$2) K_v = \frac{v_A}{P_A} = \frac{0,52}{36} = 0,0144 \frac{\text{m/c}}{\text{mm}}.$$


3. mexanizmni tezlik rejasini qurish uchun ixtiyoriy bir no`qtada (r) polus belgilab olamiz

4. belgilab olingan polus nuo`qtamizdan tezlik rejasini qurish metodi buyicha burchak tezligi – ω harakatlanayotgan tomonga qarata ixtiyoriy ulchamda (ulcham $30 \div 70$ gacha vatmanga chizmani joylashtirishga qarab talaba tomonidan tanlanadi) olinadi.


5. mexanizmning qolgan zveno tezliklarini a nuqta uchidan perpendikulyar utkazish yo`li orqali aniqlanadi

6. mexanizmning aniqlangan tezlik rejasidan foydalangan holatda mexanizm zvenolarining barchasida sodir buladigan burchak tezligi – ω ning yo`nalishlari aniqlanadi.

mexanizmning ajratilgan 2-holati va unga asosan qurilgan tezlik rejasi quyida 1- shaklda keltirilgan.



1- shakl.



7. Mexanizm 2 – holati uchun qurilgan tezlik rejasidan foydalangan holatda qolgan barcha no`qtalarning absolyut va nisbiy qiymatlarini aniklaymiz. Bizga berilgan topshirikda O - no`qta qo`zgalmas o`qda joylashganligi uchun O – no`qtaning barcha qiymatlari 0 - ga teng bo`ladi. Shu sababli biz V - nuqtaning absolyut va nisbiy qiymatlarini aniqlaymiz. V nuqtaning vektorli tenglamasi quyida keltirilgan (3-tenglama).

$$3) \begin{cases} \vec{v}_B = \vec{v}_A + \vec{v}_{AB} \\ \vec{v}_B = // yy \end{cases}$$

8. V nuqtaning tuzilgan vektorli tenglamasi yordamida V nuqtaning absolyut va nisbiy tezliklarini aniqlaymiz (4-ifoda)

$$v_v = P_B \cdot K_v \text{ [m/s]}$$

$$4) v_{AV} = ab \cdot K_v \text{ [m/s]}$$

$$v_{VS} = sb \cdot K_v \text{ [m/s]}$$

9. S nuqta A va V nuqtalar bilan bir qatorda bo`lganligi sababli S nuqtaning qiymatini aniqlash maqsadida geometrik proporciya tuzamiz (5-ifoda).

$$5. \frac{AB}{ab} \times \frac{BC}{bc} = \frac{ab \cdot BC}{AB} \text{ [mm]}$$

10. mexanizm zvenolaridagi burchak tezliklarini aniklaymiz (6 - ifoda).

$$6. \omega_2 = \frac{v_{AB}}{LAB} \text{ [p/c]} \quad \omega_3 = \frac{v_{BC}}{LBC} \text{ [p/c]}.$$

IV – Ishning bajarish tartibi.

- mexanizm ishlashi bilan tanishish, tezlik masshtabini tanlash.
- mexanizmning tezliklar rejalarini qurish va arifmetik ifodalarini aniqlash
- mexanizm tarkibidagi hamma nuqtalarning burchak tezliklarini aniqlash va ularning mexanizmida harakat yo`nalishini kursatish.
- tezliklar rejasidan foydalangan holatda absolyut va nisbiy tezliklarni qiymatlarini aniqlash.
- keltirilgan turt topshiriqlarni bajarish va batafsil suzlab berish.

V – Bajarilgan ish to`g`risida hisobot.

- Ishning maqsadini tushuntirish.
- mexanizm ishlashi haqida qisqacha ma`lumot berish.
- mexanizmning kinematik shemasini chizish, talab etilgan holat buyicha tezlik rejasini qurish va mexanizm zvenolarida burchak tezligi yo`nalishlarini kursatish.
- talabning bajargan tajriba ishi tugrisida hulosasi.

VI – tekshirish uchun savollar.

- tekislikda harakat qiluvchi kup zvenoli mexanizm zvenolari asosan necha hil harakatlanish qobiliyatiga ega va ular qaysilari ?
- mexanizm kinematik shemasini chizish uchun qaysi ma`lumotlar berilgan bulishi kerak ?
- uzunlik masshtab koefficientini tanlab olishdan maqsad?
- mexanizm kinematik shemasini chizish ketma – ketligi ?
- mexanizm ikkinchi va undan kitingi zvenolarning burchak tezligi zvenolarda

qanday aniqlanadi?

№ 4 T A J R I B A I S H.

MEXANIZMNI TEZLANISHLARNI TAJRIBA USULIDA ANIQLASH.

I - Ishning maqsadi.

Talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, mexanizmlarning kinematik, strukturoviy tuzilishlari va mexanizmlarning tezlanish rejalari orqali tekshirish buning bilan talabalarni nazariy olgan bilimlarini yanada mustahkamlashdan iborat.

II – Mashg'ulot uchun jihozlar.

- A) turli hil mexanizm maketlari.
- B) mehanizi kinematik shemalari.
- V) ulchash asboblari, chizgich va rezinka hamda cerkul va hisoblagichlar.

III - Umumiy ma'lumotlar.

mexanizmning istalgan holati 12 holatdan ajratib chiziladi (rahbar tomonidan kursatilgan holat nazarda tutilgan) shu holat uchun tezlanish rejalari qurib ularni

son qiymatlarini ham aniqlab olinadi zvenolar ulchamlari albatda inobatga olinishi shart.

Quyidagi 2- holati uchun tezlanish rejasini (planlari) tuzamiz bu ish quyidagi ketma – ketlik asosida amalga oshiriladi.

1. A-nuktaning tezlanishini quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz.

$$\alpha_A = \frac{(\bar{g}_A)^2}{l_{OA}} \quad [m/c^2]$$

2. V - nuqtaning tezlanishini aniqlash uchun vektorli tenglama tuzamiz:

$$\begin{cases} \alpha_B = \alpha_a + \alpha_{ab}^n + \alpha_{ab}^r \\ \alpha_B = // yy \end{cases}$$

3. Tuzilgan vektorli tenglamalardan foydalanib normal vektor qiymatlarini aniqlaymiz:

$$\alpha_{ab}^n = \frac{(\bar{g}_{ab})^2}{l_{ab}} \quad [m/cek^2]$$

$$\alpha_{bc}^n = \frac{(\bar{g}_{bc})^2}{l_{bc}} \quad [m/cek^2]$$

4. aniqlangan qiymatlardan foydalangan holatda mexanizm zvenolarida sodir bo'ladigan tezlanish rejasini (tezlik plani) quramiz. Buning uchun chizma tekisligida biror tezlanish qutbi π ni belgilab olamiz. Shu nuqtadan, tenglama-lar sistemasiga kura, birinchi tenglamaning vektor chizma ifodasini sungra qolgan ifodalarni ketma ket chizib olamiz. Bunda chizma qo'lami hisobga olingan holda tezlanish masshtabi tanlanadi va son qiymatlari aniqlangan tezlanishlarning chizma uzunliklari belgilanadi.

4. Normal vektorlarni haqiqiy o'lchamini aniqlash uchun tezlanish masshtabi quyidagicha aniqlanadi.

$$K_a = \frac{\alpha_A}{\pi a} \left[\frac{M / \text{cek}^2}{MM} \right]$$

Bu erda aA – Aniqlangan A – nuqtaning tezlanishi

πa – Ihtiyoriy kesma

5. S - nuqtaning qiymatini aniqlash uchun geometrik proporcya tenglamasini to'zib qiymatlarni aniqlaymiz

$$\frac{AB}{a\theta} \times \frac{BC}{\theta c} \quad \theta c = \frac{a\theta \cdot BC}{AB} = \frac{44 \cdot 170}{100} = 74,8 [MM]$$

$\pi a \approx (40 \div 70)$ oraligida olinadi.

6. Quyidagi masshtabdan foydalanib tezlanish planlarining haqiqiy ulchamlari aniqlanadi.

$$n_{ab} = \frac{\alpha_{ab}^n}{K_a} [MM]$$

$$n_{cb} = \frac{\alpha_{cb}^n}{K_a} [MM]$$

7. mexanizm zvenolarining normal vektorlarini haqiqiy ulchamlari ma'lum bo'lgach urunma vektor o'lchamlarini son qiy-matlarini aniqlaymiz, ularning anqlash ifodasi quyida keltirilgan.

$$\mathbf{a}_{ab}^{\tau} = \tau_{ab} \cdot \mathbf{K}_a [\text{m/s}^2]$$

$$\mathbf{a}_{si}^{\tau} = \tau_{si} \cdot \mathbf{K}_a [\text{m/s}^2]$$

8. mexanizm zvenolarining har birida burchak tezligi-dan tashqari bo'rchak tezlanishlari ham mavjud bo'lib ularning kattaliklarining qiymatlarni aniqlash uchun qo'yidagi ifodadan foydalanamiz.

$$\varepsilon_2 = \frac{a_{ab}^{\tau}}{l_{ab}} = \frac{7,744}{0,1} = 77,44 [p/c^2]$$

$$\varepsilon_3 = \frac{a_{cb}^{\tau}}{l_{cb}} \frac{13,376}{0,17} = 78,68 [p/c^2]$$

9. Tezlanish rejasini qurish tartibi quyidagicha.

a) tezlanish qutbi nuqtasi π dan A nuqta tezlanish vektorini ifodalovchi (πa) chiziladi;

v) a nuqtadan normal tezlanish vektori $\vec{a}_{BA}^n$ ni ifodalovchi ($a n_2$) kesma belgilanadi;

s) n_2 nuqtadan $\vec{a}_{BA}^{\tau}$ urunma (tangencial) tezlanish vektorining joylashuv chizigi $t - t$

AV zvenoga tik ro'vishda utkaziladi;

d) V_2 U uqi bo'ylab harakatlanayotganligi sababli πV ga paralel kesma utkazamiz

utkazagn kesma AV urinma chizigi bilan kesishgan joyida v nuqtani tezlanishi

topiladi;

e) S_2 nuqta praporciya orqali aniqlanib S_4 tezlanish vektori $\vec{a}_{BC}^n$ belgilovchi kesma


utkaziladi;

k) n_2 nuqtadan $\vec{a}_{CB}^r$ urunma (tangencial) tezlanish vektorining joylashuv chizigi $t - t$

SV zvenoga tik ro'vishda utkaziladi;

z) π qo'tbidan U o'qi buylab normal kesim utkazamiz, bular o'zaro bir – biri bilan

tutashgan joyida S_4 nuqta tezligi topiladi.



IV – Ishning bajarish tartibi

- mexanizm ishlashi bilan tanishish, tezlanish masshtabini tanlash.
- mexanizmning tezlanish rejalarini qurish va arifmetik ifodalarini aniqlash
- mexanizm tarkibidagi hamma nuqtalarning burchak tezla-nishlarini aniqlash
va ularning mexanizmدا harakat yo`nalishini kursatish.
- tezlanish rejasidan foydalangan holatda absolyut va nisbiy tezlanishlar qiymatlarini aniqlash.
- keltirilgan turt punktdagi topshiriqlarni bajarish va batafsil suzlab berish.

V – Bajarilgan ish to'g'risida hisobot

- Ishning maqsadini tushuntirish.
- mexanizm ishlashi haqida qisqacha ma`lumot berish.
- mexanizmning kinematik shemasini chizish, talab etilgan holat buyicha tezlanish rejasini qurish va mexanizm zvenolarida burchak tezlanish

yo`nalishlarini kursatish.

g) talabaning bajargan tajriba ishi tugrisida hulosasi.

VI – tekshirish uchun savollar

a) tekislikda harakat qiluvchi kup zvenoli mexanizm zvenolaridagi burchaktezlanish yo`nalishlari kinematik sxemada nimaga asoslangan holda tasvirlanadi?

b) mexanizm tezlanish rejalarini qurish qay tartibda amalga oshiriladi?

№ 5 T A J R I B A I S H.

RECHAGLI MEXANIZIMLARNING KELITIRILGAN ENERTSIYA MAMENTINI TAJRIBA USULI BILAN ANIQLASH.

I - Ishning maqsadi.

Talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, mexanizm zvenolarning ishlash jarayonida ularda hosil bo`ladigan inertiya kuchlarini aniqlash usullarini o`rgatish bilan birga talabalarni nazariy olgan bilimlarini yanada mustahkamlashdan iborat.

II – Mashg`ulot uchun jihozlar.

A) turli hil mexanizm maketlari.

B) mehanizi kinematik shemalari.

V) ulchash asboblari, chizgich va rezinka hamda cerkul va hisoblagichlar.

III - Umumiy ma`lumotlar.

Mexanizmlar dinamikasining asosiy masalalari.

Mashina va mexanizmlar dinamikasi asosan quyidagi masalalar bilan shug`ullanadi.

1. mashina va mexanizm kinematik juftlaridagi reaksiya kuchlarni inersiya kuchlari hisobga olingan holda aniqlash.

Bu dinamikaning kinetostatika qismi (harakatdagi statika) deb ataladi.

2. mashina va mexanizmlarga berilgan energiyaning tarqalish qonuni, ya`ni energitik balansi orqali mashina yoki mexanizmlarning foydali ish koeffitsientlarini topish.

3. mashina va mexanizmlardagi ayrim zvenolarning yoki zveno nuqtalarining berilgan kuchlar ta`siridagi haqiqiy harakat qonunlarini topish.

4. mashina va mexanizmlar harakatining bir tekisda bulishini ta`minlash.

5. mashina va mexanizmlardagi zveno masalalarini muvozanatlash.

Harakatlantiruvshikushlar. Mashinaning qabul organiga (zvenosiga) ta`sir qilib, uni harakatga keltiruvshi kushlarga **harakatlantiruvshi kushlar** deyiladi. Harakatlantiruvshi kushlarning yo`nalishlari harakt yo`nalishi bilan bir xil bo`ladi, shuning ushun harakatlantiruvshi kushning bajargan ishi musbat bo`ladi.  $R_g$  – harakatlantiruvshi kush krivoship – shatunli mexanizmning etaklovshi zvenosi OA (2) ning A – sharniriga qo`yilgan bo`lib, u A nuqta tezligi bilan bir yo`nalishda bo`ladi. Bazi hollarda harakatlantiruvshi kush harakt yo`nalishi bilan faqat utkir burshak tashkil qiladi. Shuning ushun R_g kush bilan A nuqta tezligi orasidagi burshak quyidagi tengsizlik bilan belgilanadi:

$$0^{\circ} \leq (\bar{P}_g \wedge \bar{V}_A) < 90^{\circ} \quad (1)$$

Shuning ushun R_g kushning ishi musbatdir.

F o y d a l i q a r s h i l i k k u s h l a r i. Qanday kushning ishini mashina engishi zarur bo'lsa, u kushga **foydali qarshilik kuchi** deyiladi. Asosan mashinalar foydali qarshilik kushlarni engish ushun ishlaydi. 14.1 – shakldagi krivoship – shatunli mexanizm orqali silindr ishidagi qotishma preslanadi. Qotishmaning porshenga ko'rsatgan qarshiligi foydali qarshilik kushi bo'lib, u shaklda R_f deb belgilangan. Foydali qarshilik kushi hamma vaqt harakatga teskari yo'nalgan bo'lib, kush bilan harakat (tezlik) orasidagi burshak quyidagi tengsizlik bilan ifodalanadi.

$$90^{\circ} \leq (\bar{P}_f \wedge \bar{V}) \leq 180^{\circ} \quad (2)$$

Foydali qarshilik kushlarini bajargan ishlari hamma vaqt manfiy bo'ladi.


Z a r a r l i q a r s h i l i k k u s h l a r. Zararli qarshilik kuchlari mashinaning harakati vaqtida paydo bo'ladi. Bunday ta'sir kushlar ham harakat yo'nalishini (tezlik) bilan utmas burshak tashkil etadi va bu burshak (2) tengsizlik bilan belgilanadi. shuning ushun bunday kushlarning ham bajargan ishlari manfiy buladi.

O g' i r l i k k u c h l a r i. Mashinaning gorizontga nisbatan harakat qiluvshi qismlarning og'irlik markazlari o'zgarganda og'irlik kushlarining bajargan ishlari ham o'zgarib boradi. Bu kushlarning bajargan ishlari harakat qiluvshi zvenolarning og'irlik markazi ko'tarilishi yoki pasayishiga qarab musbat yoki manfiy bo'ladi

I n e r t s i y a k u c h l a r i. Mashina qismlarining (zvenolarining) egri shiziqli va uzgaruvchan tezlikdagi harakatlari vaqtida inersiya kushlari paydo bo'ladi. Ayniqsa kata tezlik bilan notekis harakatlanuvchi zvenolarda inersiya kushlari ko'p bo'ladi. Tezlik o'zgarmas bo'lsa, ilgarilanma – qaytar harakatlanuvshi zvenoning inersiya kushi bo'lmaydi. Tez yuradigan mashinalarda inersiya kushlarini hisobga olish dinamik hisoblashning asosiy masalasi hisoblanadi.

Mexanizm zvenolaridagi inersiya kuchlarini hisobga olish.


Zvenoga ta'sir etuvshi kushlar ishida inersiya kushi kata ahmiyatga ega. Inersiya kushi o'zgaruvshan shiziqli tezlik yoki burshak tezligi bilan harakatlanuvshi zvenolardagina ushraydi. Tezlanish bilan haraktlanuvshi zvenoning harakatlantiruvshi zvenoga kursatgan ta'sir kushi **inersiya kushi** deb ataladi. Agar zveno uzgarmas tezlik bilan harakat qilsa, u holda, inersiya kushi ham bo'lmaydi (1 – shakl).



1 - shakl

Ilgarilanma (to'g'ri shiziqli) harakatdagi zvenoni olaylik (2 – shakl). Shakldagi zveno o'ng tomonga v – tezlik bilan va α – tezlanish bilan harakatlanayotgan bo'lsin, u holda zvenoning barsha nuqtalari bir bir xil tezlik va tezlanishga ega bo'ladi. Agar zvenoning dm – massasining inersiya kushini hisoblasak, u quyidagisha bo'ladi:

$$dp_u = - dm \cdot a$$



2 – shakl

$\alpha = \alpha_s$ ekanligini etiborga olib va zvenoni bir jinsli deb qarab, tenglikni integrallaymiz:

$$p_u = - \int dm \cdot a_s = - m \cdot a_s \quad (3)$$

bunda

$$m = \frac{G}{g}, \quad (4)$$

bu erda, P_u – zvenoning inersiya kushi;

α_s – zveno og'irlik markazining tezlanishi;

m – zvenonining massasi;

	m ₁	m ₂	m ₃	m ₄	m ₅	m ₆		Js ₁	Js ₂	Js ₃	Js ₄	Js ₅	Js ₆
0	0,8	1,2	1,1					0,11	0,12				

Bo'g'inlar, kinematik juftlar va tayanchlarga turli kuchlarning ta'sirini o'rganish masalasi dinamikaning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bundan maqsad mexanizm harakatini engillashtirish va uning uzoq muddatga chidamliligini oshirishdir, ya'ni mexanizm detallarini mustahkamligini hisoblash, kinematik juftlarni edirilish darajasini belgilash va mexanizmni harakatlantirish uchun sarflanadigan quvvatni aniqlash masalalaridir.

Kinetostatik hisobni bajarishda Dalamber printsipi qo'llaniladi. Statikaning muvozanat tenglamalarini qo'llab harakatdagi mexanizmni kuch ta'siridagi analizi kinetostatik analiz deb ataladi.

Quyida mexanizmlarning kinematik juftlaridagi reaksiya kuchlarini aniqlash va ularning muvozanatlovchi kuchlarini aniqlash uslubi bilan misollarda tanishamiz.

Masalani echish uchun quyidagilar berilgan:

1. Mexanizmni turi (metrik o'lchamlari bilan).
2. Bo'g'inlarga ta'sir etuvchi tashqi kuchlar- R.
3. Bo'g'inlarning og'irlik kuchlari- G.
4. Boshlang'ich (etaklovchi) bo'g'inning harakat qonuni ω_1 yoki n_1 .

5. Bo'g'inlar masalalarini inertsia momentlari J.

Yuqoridagilardan foydalanib:

1. Mexanizmni berilgan xolati uchun tezlik va tezlanish rejalari qurib, bo'g'inlarning chiziqli, burchak tezlik va tezlanishlarining miqdori va yo'nalishlari aniqlanadi.

2. Bo'g'inlarni og'irliklari (G) va og'irlik markazi tezlanishlaridan (a_s) foydalanib, inertsia kuchlari va juft kuch momentlarining (F_U, M_U) yo'nalishi va miqdorlari aniqlanadi.

3. Mexanizmi Assur guruxlariga ajratib, oxirgi bog'lanuvchi Assur guruhidan boshlab muvozanatlik tenglamalarini qo'llagan xolda kinematik juftlardagi reaksiya kuchlari aniqlanadi.

4. Yetaklovchi bo'g'inni muvozanatga keltiruvchi kuch (moment) va mexanizmni harakatlantirish uchun sarflanadigan quvvat aniqlanadi.

Kurs loyihasini amalga oshirishda kinematik juftlardagi ishqalanishni hisobga olmasdan yuqoridagi masalalarni hal qilish tartibi bilan tanishamiz

Mexanizmning holati uchun tezlik va tezlanishlar rejalari chiziladi:

Bo'g'inlarning chiziqli va burchak tezlanishlari aniqlanadi

$$a_{s2} = \mu_a \cdot \pi s_2 = 85 \cdot 0,231 = 19,63 [M/c^2],$$

$$a_{s3} = \mu_a \cdot \pi s_2 = 73 \cdot 0,231 = 16,8 [M/c^2],$$

$$\varepsilon_2 = \frac{a_{tBA}}{l_{AB}} = \frac{\mu_a \cdot t_{BA}}{l_{AB}} = 17,7 \left[\frac{1}{c^2} \right]$$

$$\varepsilon_3 = \frac{a_{tBO_2}^t}{l_{O_2B}} = \frac{\mu_a \cdot t_{BO_2}}{l_{O_2B}} = 14,2 \left[\frac{1}{c^2} \right]$$

Bo'g'inlar inertsia hamda og'irlik kuchlarining miqdorlari va yo'nalishlarini aniqlash

$$G_1 = m_1 \cdot g = 0,8 \cdot 9,8 = 7,8 \text{ N}$$

$$G_2 = m_2 \cdot g = 1,2 \cdot 9,8 = 11,8 \text{ N}$$

$$G_3 = m_3 \cdot g = 1,1 \cdot 9,8 = 10,8 \text{ N}$$

$$P_{u_2} = -\frac{G_2}{g} a_{s_2} = -m_2 a_{s_2} = -19,6 \cdot 1,2 = -23,5 [H],$$

$$P_{u_3} = -\frac{G_3}{g} a_{s_3} = -m_3 a_{s_3} = -16,8 \cdot 1,1 = -18,5 [H],$$

$$M_{u_2} = -\varepsilon_2 I_{s_2} = -17,7 \cdot 0,11 = -1,95 [HM]$$

$$M_{u_3} = -\varepsilon_3 I_{s_3} = -14,2 \cdot 0,12 = -1,7 [HM]$$

Inertsia kuchlarining yo'nalishi og'irlik markazlari tezlanishlari yo'nalishiga parallel xolda teskari ravishda yo'nalgan.

Inertsia momentlari yo'nalishi esa bo'g'inlarniig burchak tezlanishlari ε yo'nalishiga qarama-qarshidir. Mexanizm kinematik sxemasida bo'g'inlarning inertsia kuchlari va momentlarini yo'nalishlari belgilanadi.

Kinematik juftlardagi reaksiya kuchlarini aniqlash

Bu masala ohirgi bog'lanuvchi Assur guruhidan boshlanadi va krivoshipni tayanch bilan birgalikdagi guruh bilan tugatiladi;

a) 2-3 bo'g'inlardan tarkib topgan Assur guruhining kinetostatikasi.

2 va 3 bo'g'inlarga $G_2, P_{u2}, M_{u2}, G_3, P_{u3}, M_{u3}$ kuchlar va momentlar tasir etadi.

B va O₂ kinematik juftdagi reaksiya kuchini R_{21}^n, R_{21}^t va R_{43}^t, R_{43}^n tashkil etuvchilarga ajratib yo'nalishini tahminan qabul qilamiz.

2,3 Assur guruhining muvozanatlik tenglamasini tuzamiz:

$$R_{21}^n + R_{21}^t + \overline{G_2} + P_{u2} + G_3 + P_{u3} + R_{43}^t + R_{43}^n = 0$$

Tenglamada $R_{21}^n; R_{21}^t; R_{43}^n; R_{43}^t$ kuchlarining miqdorlari noma'lum. Shulardan 2 tasini aniqlash uchun 2 va 3 bo'g'inlarga ta'sir etuvchi kuchlardan nuqtaga nisbatan momentlar olib ularning yig'indisi nolga tenglashtiriladi.

2- bo'g'inga ta'sir etuvchi kuch momentlari:

$$\sum M_B = 0$$

$$-M_{u2} - R_{21}^t \cdot AB - G_2 h_{G_2} + P_{u2} h_{P_{u2}} = 0$$

$$R_{21}^t = \frac{M_{u2} + G_2 h_{G_2} - P_{u2} h_{P_{u2}}}{AB} = \frac{-1.9 + 11.8 \cdot 49 + 23.5 \cdot 61}{125} = 16.1 [H]$$

3- bo'g'inga ta'sir etuvchi kuchlardan olingan momentlar yi/indisi:

$$\sum M_K = 0$$

$$M_{u3} - R_{43}^t \cdot O_2 K + G_3 h_{G_3} - P_{u3} h_{P_{u3}} = 0 \quad (5)$$

bundan

$$R_{43}^t = \frac{M_{u3} + G_3 h_{G_3} - P_{u3} h_{P_{u3}}}{O_2 K} = \frac{-1.7 + 10.8 \cdot 24 + 18.5 \cdot 10}{72} = 6.1 [H]$$

$$\text{Rejaning masshtabi } \mu_F = \frac{R_{21}^t}{ab} = \frac{16.1}{90} = 0.178 \text{ N/mm}$$

Demak, R_{21}^t kuchi ab kesmasi bilan ifodalanadi.(ab kesma ixtiyoriy uzunlikda tanlanadi). Qolgan kuchlarni ifodalovchi kesmalar hisoblanishi kerak, ya'ni

$$bc = \frac{G_2}{\mu_F} = \frac{11.8}{0.178} = 66 [MM],$$

$$cd = \frac{P_{u2}}{\mu_F} = \frac{23.5}{0.178} = 132 [mm]$$

$$de = \frac{G_3}{\mu_F} = \frac{10.8}{0.178} = 60.5 [mm]$$

$$ef = \frac{P_{u3}}{\mu_F} = \frac{18.5}{0.178} = 104 [mm]$$

$$fg = \frac{R_{43}^t}{\mu_F} = \frac{6.1}{0.178} = 34 [mm]$$

Tuzilgan kuch rekjasidan foydalanib qolgan kuchlarning miqdorlarini aniqlab olamiz.

$$R_{21}^n = ah \cdot \mu_F = 25 \cdot 0.178 = 4.5 N$$

$$R_{43}^n = gh \cdot \mu_F = 45 \cdot 0.178 = 8 N$$

$$R_{21}^n = ak \cdot \mu_F = 265 \cdot 0.178 = 47.2 N$$

$\overline{R}_{21}q - \overline{R}_{12}$ nazarga olib, krivoshipni kinetostatik hisobi bajariladi. Shakldan krivoship bo'lak ravishda chiziladi. Unga ta'sir etuvchi kuchlar quyidagilardir:

R_{21} – shatunning krivoshipga ta'sir(reaktsiya) kuchi.

P_M – krivoshipni (mexanizmni) muvozanatlovchi kuch. Bu kuch krivoship holatiga tik R_{21} reaksiya kuchiga qarshi yo'nalgan.

R_{01} – tayanchning krivoshipga ta'sir(reaktsiya) kuchi.

Krivoshipni aylanish markazi O nuqtani nisbatan kuchlardan moment olinib P_M kuchi aniqlanadi.

$$P_M \cdot l_{OA} + R_{12} \cdot h_{R12} \cdot \mu_e = 0$$

$$P_M = \frac{R_{12} \cdot h_{R12} \cdot \mu_l}{l_{OA}} = \frac{R_{12} \cdot h_{R12} \cdot \mu_l}{OA \cdot \mu_l} = \frac{47.2 \cdot 47}{50} = 44.3 \quad [H]$$

Krivoshipga ta'sir etuvchi kuchlar rejasini μ_F masshtabida chizamiz va R_{01} kuchini aniqlaymiz.

$$\text{Kuch rejas masshtabi: } \mu_F = \frac{R_{12}}{ab} = \frac{47.2}{50} = 0.944 [N/mm]$$

Keltirilgan kuch rejasidan:

$$R_{01} = \mu_F \cdot ac = 0.944 \cdot 3 = 2.83 [H]$$

Muvozanatlovchi moment va quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$M_m = P_m \cdot l_{OA} = 44.3 \cdot 0.65 = 28.8 Nm$$

N.E.JUKOVSKIYNING “QATTIQ RICHAG” USULI.

Muvozanatlovchi kuchni N.E.Jukovskiyning “qattiq richag” usuli bilan ham aniqlash mumkin. Mexanizm holati uchun tezlik rejas ma'lum masshtabda chiziladi.

Bu reja N.E.Jukovskiyning “qattiq richag”i hisoblanadi. So'ngra mexanizmga ta'sir etuvchi kuchlarni hammasini (momentlarni juft kuchga ajratgan holda) 90° burib “qattiq richag”ni nuqtalariga keltirib qo'yiladi. Qutb

nuqtasiga nisbatan kuchlardan olingan momentlar yi/indisi nolga tengligidan foydalanib, R_M - muvozanatlovchi kuch aniqlanadi. Birinchi misolimizdagi (1-shakl) mexanizmni muvozanatlovchi kuchni “qattiq richag” usuli bilan aniqlaymiz.

Kuchlarni soat strelkasi harakati yoʻnalishiga mos ravishda 90° burib richag nuqtalariga qoʻyamiz.

Boʻgʻinga taʼsir etuvchi momentlarni juft kuchlarga ajratish uchun mexanizmdan boʻgʻinlar momentlar holati oʻzgartirilmay shartli ravishda ajratiladi va chiziladi.

$$F_A = F_{B_2} = \frac{M_{u_2}}{l_{AB}} = \frac{1.95}{1.625} = 1.2 \text{ N}$$

$$F_{O_2} = F_{B_3} = \frac{M_{u_3}}{l_{O_2B}} = \frac{1.7}{1.3} = 1.3 \text{ N}$$

Juft kuchlar 90° ga burilib tegishli nuqtalarga keltirib qoʻyiladi.

Muvozanatlovchi kuchni ham 90° ga burib qattiq richagning P nuqtasiga nisbatan kuchlar momentlarini yigʻindisi nolga tengligidan foydalanib P_M kuchi aniqlanadi.

$$P_M \cdot Pa - F_{B_3} \cdot h_{F_{B_3}} + P_{u_2} \cdot h_{P_{u_2}} + F_{B_2} \cdot h_{F_{B_2}} - G_2 h_{G_2} + P_{u_3} h_{P_{u_3}} - G_3 h_{G_3} - F_A \cdot h_{FA} = 0$$

$$P_M = \frac{-F_{B_3} \cdot h_{F_{B_3}} - P_{u_2} \cdot h_{P_{u_2}} - F_{B_2} \cdot h_{F_{B_2}} + G_2 h_{G_2} - P_{u_3} h_{P_{u_3}} + G_3 h_{G_3} - F_A h_{FA}}{Pa} =$$

$$\frac{-1.3 \cdot 90 + 23.52 \cdot 28 - 1.2 \cdot 47 + 11.8 \cdot 7.6 + 18.5 \cdot 20 + 10.8 \cdot 43 + 1.2 \cdot 25}{80} = 41.4 \text{ N}$$

Ikki usul orqali aniqlangan muvozanatlovchi kuchlarni farqli ravishda aniqlanadi.

$$\Delta P_M = \frac{P_M^{\text{ж}} - P_M^n}{P_M^{\text{ж}}} 100\% = \frac{|41,4 - 44,3|}{41,4} \cdot 100 = 7,01\% \text{ H}$$

Ikki usul orqali aniqlangan muvozanatlovchi kuch natijasi 7.01% ni tashkil qilishi aniqlandi. Olingan natija mumkin qadar aniq holatda hisoblangan.

Xulosa


Xulosa qilib shuni aytish mumkinki mexanizm tarkibida boʻlgan har bir zveno oʻzining harakatlanish qoidasiga asosan oʻz harakatlarini bajarib, harakatlanish davrida kinematik juftliklarida sodir boʻladigan har bir jarayonlarni oʻrganib chiqdim. Bunda kinematik juftliklardagi absalyut va nisbiy tezliklar, tezlanishlar hamda shu nuqtalarga taʼsir etuvchi ichki foydali,

ichki zararli qarshilik kuchlarni, nuqtalardagi mahaliy kuchlarni tahlil qildim. Bundan tashqari zvenolarning kinematik juftliklaridagi reaksiya kuchlarini tahlil qilib undagi vaziatlarni aniqladim.


Mexanizmlarni analiz qilish davrida ularni ikki usul orqali urganib ikkalasidan olingan natijalarni solishtirib aniq bir xulosaga keldim. Bu usullarning birinchisi analitik usul bo'lib bunda mexanizm tarkibidagi barcha nuqtalarni aniq bir vaziatdagi holatlari tekshirilib, qolgan vaziatlar uchun ham zveno nuqtalaridagi holatlar natijalari shunga yaqin bo'ladi deb faraz qilinishi to'g'ri ekanligiga yana bir bora ishonch hosil qildim. Ikkinchi usul esa grafaanalitik usul bo'lib, bunda mexanizmning istalgan bir nuqtasi olinib shu nuqtaning to'la 12 holati natijalari olinadi va shu natijalar buyicha yo'l va oraliq diagrammalari urganilib shunga asosan tezlik va tezlanish grafiklari quriladi. Grafiklardan olingan natijalar bilan analitik usulda olingan natijalar solishtirilib xulosa qilinadi. Bunda zveno nuqtalarida jarayonlarning aniq natijalari olinar va ular solishtirilib xulosa qabul qilish mumkunligiga iqror buldim.

Kurs loyihasi topshiriqlar to'plami

0 – topshiriq




Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar									
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
$AB = 2,5. O_1 A$	$O_1 A \text{ м}$	0,03	0,04	0,05	0,045	0,15	0,06	0,65	0,25	0,05	0,06
$BC = 2,0. O_1 A$	φ, grad	20	10	60	20	50	40	10	20	30	20
$O_2 C = 1,5. O_1 A$	$n \text{ айл/мин}$	50	30	40	60	75	65	85	75	100	120
$O_2 B = 2,0. O_1 A$	$P, \text{н}$	50	55	70	50	30	40	100	80	210	150
$X_1 = 3,0. O_1 A$											
$h = 1,3. O_1 A$											



1- jadval



№	r_0	h	E	φ_k	φ_u	φ_q	φ_{ya}
	Mm			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150

1 – topshiriq



Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar									
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
$AB = 2,5. O_1 A$	$O_1 A \text{ м}$	0,03	0,04	0,05	0,045	0,15	0,06	0,65	0,25	0,05	0,06


AC = 0,5 O ₁ A	φ, grad	20	10	60	20	50	40	10	20	30	20
	n айл/мин	50	30	40	60	75	65	85	75	100	120
	P, н	50	55	70	50	30	40	100	80	210	150



1- jadval



№	r ₀	h	E	φ _k	φ _y	φ _q	φ _{ya}
	mm			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150

2 – topshiriq



Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar									
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9


$AB = 1,5 \cdot O_1 A$ $BO_2 = 1,5 \cdot O_1 A$ $BC = 0,5 \cdot O_1 A$ $CD = 2,0 \cdot O_1 A$ $X = 1,75 \cdot O_1 A$	$O_1 A$ м	0,05	0,04	0,06	0,05	0,07	0,06	0,05	0,15	0,05	0,06
	φ , grad	60	70	60	50	80	100	70	50	40	30
	n айл/мин	55	80	140	160	70	60	85	70	100	120
	P, н	55	50	75	55	35	45	90	80	110	150



1- jadval


№	r_0	h	E	φ_k	φ_u	φ_q	φ_{ya}
	mm			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150

3 – topshiriq



Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar									
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9


$AB = 1,5 \cdot OA$ $BC = 1,5 \cdot OA$ $CO_2 = 1,5 \cdot OA$ $X = 2,5 \cdot O_1A$	O_1A м	0,04	0,05	0,07	0,05	0,06	0,08	0,05	0,05	0,06	0,07
	φ , grad	40	70	80	60	90	100	60	80	40	60
	n айл/мин	75	90	120	140	170	160	185	170	100	120
	P, н	55	50	75	55	35	45	90	80	110	150



1- jadval


№	r_0	h	E	φ_k	φ_u	φ_d	φ_{ya}
	mm			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150

4 – topshiriq



Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar									
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
BC = 2,0. AB CD = 1,5 AB	AB м	0,05	0,07	0,06	0,05	0,07	0,06	0,05	0,08	0,06	0,07


$\Delta E = 1,5. \text{ AB}$ $X_1 = 1,0. \text{ AB}$ $X = 2,5. \text{ AB}$ $\Delta F = 1,5. \text{ AB}$	$\varphi, \text{ grad}$	40	70	80	60	90	100	60	80	40	60
	$n \text{ айл/мин}$	50	90	120	130	140	120	100	110	100	130
	$P, \text{ н}$	55	50	75	55	35	45	90	80	110	150



1- jadval


№	r_0	h	E	φ_k	φ_u	φ_d	φ_{ya}
	mm			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150

5 – topshiriq



Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar									
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
$BC = 2,0. \text{ AB}$	$AB \text{ м}$	0,06	0,05	0,07	0,05	0,08	0,05	0,09	0,08	0,06	0,07


CD=1,5. AB DE =1,5 . AB CE=2,5.AB X = 3. AB Y₁ = 1,5 . AB											
	φ , grad	50	60	80	70	90	50	70	80	90	60
	n айл/мин	70	80	150	130	140	130	100	110	100	130
	P, н	55	50	75	55	35	45	90	80	110	150




1- jadval


№	r_0	h	E	φ_k	φ_u	φ_d	φ_{ya}
	mm			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150

6 – topshiriq




Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar									
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
AB = 2,3. OA AC=1,3. OA	OA м	0,06	0,05	0,07	0,05	0,08	0,05	0,09	0,08	0,06	0,07
	φ , grad	50	60	80	70	90	50	70	80	90	60
	n айл/мин	70	80	150	130	140	130	100	110	100	130
	P, н	55	50	75	55	35	45	90	80	110	150






№	r_0	h	E	φ_k	φ_u	φ_d	φ_{ya}
	Mm			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150




Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar									
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
AB = 2,0. OA AC=0,5. OA	OA м	0,05	0,07	0,06	0,05	0,07	0,06	0,05	0,08	0,06	0,07
	φ , grad	40	70	80	60	90	100	60	80	40	60
	n айл/мин	50	90	120	130	140	120	100	110	100	130
	P, н	55	50	75	55	35	45	90	80	110	150




№	r_0	h	E	φ_k	φ_u	φ_q	φ_{ya}
	Мм			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150

8 –topshiriq



Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar									
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
AB = 2,8. O ₁ A AC = 0,5. O ₁ A	O ₁ A м	0,2	0,3	0,5	0,25	0,38	0,25	0,15	0,18	0,26	0,17
	φ , grad	6	40	80	45	90	55	70	65	55	75
	n айл/мин	55	65	125	115	155	105	195	145	120	140


	P, н	40	70	50	65	35	45	90	80	110	150
--	------	----	----	----	----	----	----	----	----	-----	-----



1- jadval



№	r_0	h	E	ϕ_k	ϕ_u	ϕ_d	ϕ_{ya}
	mm			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150

9 – topshiriq



Zvenolarning uzunligi	Berilgan kattaliklar	Variantlar									
		0	1	2	3	4	5	6	7	8	9
AB = 1,5. O ₁ A	O ₁ A м	0,03	0,04	0,05	0,045	0,15	0,06	0,65	0,25	0,05	0,06
BC = 0,75. O ₁ A	ϕ , grad	20	10	60	20	50	40	10	20	30	20
O ₂ C = 1,0. O ₁ A	n айл/мин	50	30	40	60	75	65	85	75	100	120


$X_1 = 2,0 \cdot O_1 A$ $CD = 2,0 \cdot O_1 A$	P, H	50	55	70	50	30	40	100	80	210	150
---	------	----	----	----	----	----	----	-----	----	-----	-----



1- jadval

№	r_0	h	E	φ_k	φ_u	φ_d	φ_{ya}
	mm			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150

Kulachokli mexanizmlar bo'yicha variantlar





1- jadval



№	r_0	h	E	φ_k	φ_u	φ_q	φ_{ya}
	mm			grad			
1	30	40	10	120	30	120	90
2	35	30	10	90	80	90	100
3	40	35	15	120	45	120	75
4	30	40	10	90	30	90	150
5	35	45	15	120	90	120	30
6	35	40	10	90	60	90	120
7	40	35	10	120	60	120	60
8	40	35	15	90	100	90	80
9	30	35	10	120	60	120	60
10	30	40	15	90	30	90	150

2- jadval

№	L	e	Ψ_0	Ψ_{mah}	φ_k	φ_u	φ_q	φ_{ya}
1	75	40	15	30	90	90	90	90
2	80	45	20	32	20	60	120	60
3	85	50	30	25	90	60	90	120
4	95	60	15	30	120	80	120	100
5	105	70	20	30	90	60	90	120
6	110	80	20	45	100	80	100	80
7	120	85	15	30	90	40	90	130
8	110	75	20	35	110	40	110	100
9	100	65	20	30	90	75	90	105
10	95	60	25	30	120	30	120	90

Kulachokli mexanizmi turtkichining harakat qonunlari.





Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari mavzulari

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni.

"Mashina va mexanizmlar nazariyasi" fani bo'yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni tahlil qiladi, uy vazifa sifatida berigan misol va masalalarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni uqib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari tizimi asosida baholanadi.

Uyga bazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni toppish yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foyidalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib boorish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqoli va ma'ruzalar tayyorlash kabilar nalabani darsda olgan bilimni chuqirlashtiradi, talabani mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bulishi mumkin emas.

Uy vazifasini tekshirish va baholash amaliy mashg'ulot olib boruvchi o'qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o'zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma'ruza darslarini olib boruvchi o'qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ta'limining mavzulari.

- 1 Jahon va o'rta Osiyo olimlarining fanni rivojiga qushgan hissalar.
- 2 Kinematik juftlik klassifikatsiyasi.
- 3 Mexanizmlarning asosiy turlari.
- 4 egiluvchi zvenoli mexanizmlar.
- 5 Bog'lanishlar tug'risida umumiy tushunchalar.
- 6 Mexanizm va mashinalarning tuzulish asoslarining asosiy tushuncha va qoidalari.
- 7 Ideo va real bog'lanishlar.
- 8 Zvenolar va kinematik juftlarni shartli belgilash.
- 9 Kinematik zanjirlar va ularning turlari.
- 10 Mexanizmlarning racional klassifikatsiyasiga nisbatan qo'yiladigan talablar.
- 11 quyi kinematik juftli II – klass 2 – tartibli gruppaning modifikatsiyalari.
- 12 Fazoviy va tekis mexanizmlar tuzulish formulasining ishlatilishi.
- 13 Oniy aylanish markazi (OAM).
- 14 Mexanizm bug'inlarining tezliklari orasidagi munosabatlar.
- 15 Kinematik juftlar bo'g'inlarining tezlik va tezlanishlarini grafoanalitik usulda aniqlash.
- 16 Kinematik taxlilning analitik usuli.
- 17 Uzatish mexanizmlarining taxlili.
- 18 egiluvchan bug'inli mexanizmlar.
- 19 Tishli mexanizmlar.
- 20 Ilashishning asosiy qonuni va elementlari.
- 21 G'ildiraklar tishlari yig'indisining minimal qiymati.
- 22 evol'ventali profillar geometriyasi.
- 23 Planitar va differensial mexanizmlarda uzatish nisbati.
- 24 Mushtakli mexanizmlar turlari.
- 25 Mushtakli mexanizm chiqish bo'g'inining harakat qonunini aniqlash.
- 26 Mushtakli mexanizm nuqtalari tezlik va tezlanishlarini aniqlash.
- 27 Mexanizmlarni kuchlar ta'siri bo'yicha hisoblash masalalari
- 28 Mexanizm bo'g'inlariga ta'sir qiluvchi kuchlar.
- 29 Bug'inlarning inertiya kuchlarini aniqlash

- 30 Etaklovchi bo`g`inni kinetostatikhisoblash (muvozanatlash).
- 31 Kuchlar va momentlarni keltirish.
- 32 Jukovski pishangi (richagi).
- 33 Keltirilgan va muvozanatlovchi kuchlarni Jukovski usuli bilan aniqlash.
- 34 Kinematik juftlardagi reaksiyalarni ishqalanish kuchlarini hisobga olib aniqlash.
- 35 Ishqalanish turlari.
- 36 Moylanmagan jismlardagi sirpanish ishqalanishi.
- 37 Ilgarilanma kinematik juftlardagi ishqalanish.
- 38 Kuchlar, ishlar va quvvatlar diogrammalari.
- 39 Mexanizm va mashinalarning harakat rejimlari.
- 40 Mexanizmlarning foydali ish koefficientlari.
- 41 Vittenbauer diogrammasi.
- 42 Mexanizmlarni eksperimental yo`l bilan tekshirish.
- 43 Mexanizmlarni sentez (barpo) qilish.
- 44 Mexanizmlarni sentez qilish masalalarini echishning asosiy usullari.
- 45 Tekislikda harakatlanuvchi mexanizm zveno no`qtalarining tezlik va tezlanishlarini topish.
- 46 Kinematik diogrammalar yordami bilan mexanizmlar kinematikasini o`rganish.
- 47 Urinmalar metodi Bilan differenciallash.
- 48 Vatarlar yordami Bilan differenciallash.
- 49 Ordinatalar ortirish usuli Bilan diferenciallash.
- 50 II – klass mexanizmlar uchun tezliklar rejasini tuzish.
- 51 To`rt zvenoli shanir mexanizm uchun V.T.Kostichinning yuzalar qonuni
- 52 Analitik kinematika.
- 53 III – klass 3-tartibli mexanizm uchun tezliklar rejasi.
- 54 Grafik integrallash metodlari integral chiziqlar.
- 55 Uzatish funkciyasi haqida tushuncha.
- 56 Mexanezmning permanent boshlang`ich harakatini topish.
- 57 Mexanizm kinematikasi sxemalarini sintezlash.
- 58 H`arakatni uzatish to`g`risida umumiy masala.
- 59 Nisbiy harakatdagi centroidlar.
- 60 Loyhalashning analitik metodi.
- 61 Shesternalardan tuzilgan murakkab uzatmalar.
- 62 Villis formulasi.
- 63 Fazoda harakatlanuvchi shesternyali mexanizmlar.
- 64 Satelli o`zgaruvchan bo`rchak tezlikli epiceklik mexanizmlarning analitik kinematikasi.
- 65 Kinematik zanjirning statik aniqlik shartlari.
- 66 Kulochokli mexanizmlardagi bosim burchagi haqida tushuncha.
- 67 egiluvchi zvenolardagi ishqalanish.
- 68 energiya va ish tug`risida tushuncha.
- 69 Mexanizmning kinetik energiyasi.
- 70 Keltirilgan massa va inerciya momenti haqida tushuncha.
- 71 Harakat differensial tenglamasini taqribiy integrallash.

- 72 Ketma – ket, parallel ulchashdagi mexanik foydali ish koefficienti.
- 73 Mashinaning doviy va doviymas harakati.
- 74 Urinma kuchlar usuli bilan ortiqcha ishini topish.
- 75 I. I. Artobolevskiy metodi.
- 76 Mexanizm etaklovchi zvenosining urtacha burchak tezligini kinetik energiya orqali topish.
- 77 Aylanuvchi massalarni muvozanatlash.
- 78 elastik valning kritik tezligi haqida tushuncha.
- 79 Mexanizm yoki mashinani tula va qisman muvozanatlash.
- 80 Mexanizm harakatini urganishda Lagranj tenglamasining tadbiqu.

II. Glossariy

Atamaning o`zbek tilidagi nomlanishi	Atamaning ingliz tilidagi nomlanishi	Atamaning ma`nosi
Mashina	machine	qurilma, insonning aqliy va jismoniy mehnatini yengillashtirish, ish umumdorligini oshirish uchun foydali mexanik ish qilishdir.
Mexanizm	mechanism	mashinaning asosiy qismi – maqsadga

		muvoqif nisbiy harakat qiluchi jismlar sistemasi.
Zveno	link	bitta yoki bir qancha, aniq harakat qiluvchi qattiq bog'langan detal.
Kinematik juft	kinematics pair	harakatdagi ikki zvenoning bog'lanishidir.
Sterjenli mexanizm	core mechanism	mexanizm zvenolari asosan sterjen ko'rinishida bo'ladi.
Koromislo	Koromislo	qo'zg'almas nuqtaga nisbatan tebranma harakatlanadigan zveno.
Tosh	stone	qo'zg'aluvchan yo'nalishda harakatlanadigan zveno.
Kulisa	Kulik	tosh uchun qo'zg'aluvchan yo'nalish
Sharnirli mexanizm	Knuckle mechanism	mexanizm tarkibidagi kinematik juftlar sharnirdan iborat.
Polzunli mexanizm	mechanism slidem	bitta polzunga ega mexanizm.
Kulisali mexanizm	Mechanism kulik	bitta kulisaga ega mexanizm.
Absolyut tezlik	absolute speed	bu stoykaga nisbatan nuqtaning tezligi.
Nisbiy tezlik	the relative speed	bu zvenodagi bir nuqtaning boshqa nuqtasiga nisbatan tezligi (shatun uchun).
Tezlik rejasi	speed plan	absolyut, nisbiy va relyativ tezlik vektorlaridan qurilgan ko'pburchak; absolyut tezlik vektorlari tezliklar rejasidan qutb «p» dan chiqadi, bu vektorlarning oxirlarini birlashtiruvchi vektorlar nisbiy va relyativ tezlik hisoblanadi.
Massa	mass	ilgarilanma harakatlanuvchi jism o'lchovi
Reaksiya	reaction	kinematik juftdagi ikki zvenoning o'zaro ta'sir kuchi.
Muvozanatlovchi kuch	the balance of power	dvigatel kuchi, shartli krivoshipga qo'yilib, tashqi va inertsia kuchini muvozanatlaydi.
Tolkatel	pusher	bu zveno kulachok bilan bog'langan.
Kulachokli mexanizm	The cam mechanism	bu mexanizmدا kulachok deb ataladigan kirish zvenosining formasiga qarab, zveno harakatining xarakteri aniqlanadi.
Inertsia momenti	Moment of inertia	aylanma yoki silkinma harakatlanuvchi jism o'lchovi.
Bosim burchagi	corner of barefoot	bu kuch qo'yilgan nuqtaning tezlik vektori bilan kuch vektori orsidagi o'tkir burchak.
Qattiq zarb	tattoo solid	tolkatel tezlanishi cheksizlikka ega bo'lib,

		unda sakrash hodisasi ro'y beradi.
Tishli mexanizm	the gear mechanism	bu mexanizmda zvenodagi maxsus burtiklar yordamida harakat uzatib, ish protsessida bir-birini almashtiradi
Silindrik uzatma	cylindrical extension	g'ildirak o'qlari parallel uzatma.
Konusli uzatma	the extension of the tip	g'ildirak o'qlari kesishuvchi uzatma.
Giperbola uzatma	hyperbolic extension	o'qlari ayqash uzatma.
Evolventa	Evolventa	bu tayyorlash chizig'ini asosiy aylanada harakatlantirilganda hosil bo'lgan egrilik.
Modul	The module	bu bo'luvchi diametrni tishlar soniga nisbati
Tish qadami	step tooth	bu bir xil profilli ikki tish oraliqidagi aylana bo'yicha o'lchangan masofa.
Reduktor	reducer	bu sekinlanuvchan uzatma.
Multiplikator	animator	bu tezlanuvchan uzatma.
Planetar reduktor	planetary reduction gear	bu bitta qo'zg'almas markaziy g'ildirakka, bitta kirish va bitta chiqishga ega bo'lgan planetar mexanizm
Mashina dinamikasi	The dynamics of the car	bu tashqi kuchlar ta'sirida mashina harakatini o'rganish
Kuch imkoniyati	the possibility of power	bu keltirilgan kuch momenti qiymatini tsikl davomida o'zgarishi.
Inertsia imkoniyati	the possibility of inertia	bu keltirilgan inertsia momenti qiymatini tsikl davomida o'zgarishi.
Maxovik	leper	kinetik energiya akkumulyatori.

III. Ilovalar

Fan dasturi

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**Рўйхатга олинди
№_BD5321500-3.06
201__ й “____” ____**

**Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим
вазирлигининг 201__й
“____” ____даги “____” сонли
буйруғи билан тасдиқланган.**

«Механика-2» фанидан

ЎҚУВ ДАСТУРИ

Билим соҳаси:	300000 – Ишлаб чиқариш техник соҳа
Таълим соҳаси:	320000 – Ишлаб чиқаришлар технологияси
Таълим йўналиши:	5321500 – Технологиялар ва жиҳозлар (тармоқлар бўйича)

Тошкент – 201_

Фаннинг ўқув дастури Олий ва ўрта махсус, касб – ҳунар таълими йўналишлари бўйича ўқув-услубий бирлашмалари фаолиятини мувофиқлаштирувчи Кенгашнинг 201_ йил “__” _____даги “__” – сон мажлис баёни билан мақулланган.

Фаннинг ўқув дастури Бухоро Мухандислик-технология институтида ишлаб чиқилди.

Тузувчилар:

Иногорова Д.А. – Тошкент Давлат техника университети, “Машинасозлик технологияси” кафедраси доценти, техника фанлари номзоди.

Жўраев Т. О. – Бухоро муҳандислик – технология институти, “Технологиялар ва жиҳозлар” кафедраси катта ўқитувчиси.

Такризчилар:

И. И. Сафаров – Бухоро муҳандислик – технология институти, “Олий математика” кафедраси мудири ф.м.ф.док. проф.

З.Р.Насуллаев - “ЎЗБЕК НЕФТЕГАЗ” МХК, “ЎЗНЕФТГАЗМАШ” АК, “Бухоро таъмирлаш механика заводи” ОАЖ техника бўлими бошлиғи.

Фаннинг ўқув дастури Бухоро муҳандислик- технология институти Илмий – услубий Кенгашида тасвир қилинган (201_ йил “_” _____ “_” сонли баённома).

КИРИШ

Ушбу дастур йўналиш бакалаврларини «Механизм ва машиналар» умумқасбий фанини замон талаблари даражасида назарий ва амалий машғулотларда малакали мутахассис қилиб тайёрлаш учун етарли бўлган асосий мавзуларни қамраб олган.

Олий ўқув юртларида тайёрланган мутахассисларнинг касб-ҳунар коллежларида муваффақият билан ишлаши ўша соҳанинг мавқеини янада кўтарди. Шунинг учун олий ўқув юртларининг нуфузи уларнинг бош

меъзонларида ўз ифодасини топган. “Механизм ва машиналар назарияси” курсини ўқитишдан мақсад қуйида кўрсатилган муаммолар бўйича талабаларга билимлар тизимини бериш ва улар асосида малака ва кўникмалар шакллантириш. Машиналар таркибидаги барча звеноларни ҳаракатларини урганиш уларни ишлашини текшири ва тузиш тамойиллари. «Механизм ва машиналар» фани талабаларга звенолар, механизмлар, кинематик жуфтликлар, ва уларни ишлаш жараёнида ораларида бўладиган муаммоларни ҳал қилишга имкон берадиган назарий билимлар беради.

Ушбу дастур механизм ва машиналар турли хил конструкцияларини ўрганиш, уларни тузилиши кинематик, динамик таҳлил ва синтези тушунчаларига эга бўлиши ва ниҳоят уларнинг оптимал параметрларини замонавий ўлчаш ва ҳисоблаш масалаларини қамрайди.

Бу фанни урганишда, фаннинг маъруза, амалий, тажриба ва мустақил иш қисмларга ажиратиб урганиш назарда тутилган.

Ўқув фанининг мақсади ва вазифалари.

“Механика-2” фани ўқитишдан мақсад – талабаларда механизм ва машиналарнинг турли хил конструкцияларини, тузилиши, кинематикаси, динамик анализ ива сентизи тушунчаларини ҳосил қилиш, машина ва механизмларни текшириш воситалари билан танишиш ва ниҳоят уларни оптимал параметрларини замонавий ўлчаш ва ҳисоблаш техникаси ёрдамида аниқлаш усуллари бўйича йўналишлар профилларга мос билим, кўникма ва малакали шакллантиришдир.

Фаннинг вазифаси – талабаларга машина ва механизмлар назариясини асосий тушунчалари орқали замонавий талабаларга жавоб берувчи машиналар, механизмлар, қурилмалар, приборлар ва комплексларни анализ қилиш ва лойиҳалаш асосларини ўргатишдан иборат.

Фан бўйича талабаларнинг билимига, кўникма ва малака кўйиладиган талаблар.

«Машина ва механизмлар назарияси» ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида бакалавр:

- Ҳозирги замон машина ва механизмларининг турлари, уларнинг хусусиятлари, уларнинг текшириш ва лойиҳалаш масалаларини билиш керак;

- механизмларни кинематик ва динамик таҳлил этиш, тезлик ва тезланишларни топишнинг график, графо-аналитик ва аналитик усуллари механизмни динамик анализ қилишда ҳаракатлантирувчи ва қаршилик кучларини ҳисобга олиш; титраш ва ундан ҳимояланиш усуллари билиш; ҳаракат режимлари ва нотекисликларини таҳлил қилиш кўникмаларига эга бўлишлари керак;

- талаба ишлаб чиқарилаётган ишлатилаётган работ ва манипуляторларни конструкциясини таҳлил қилиш; уларни кинематик ва динамик ҳисоблаш малакаларига эга бўлиши керак.

Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги

“Машина ва механизмлар назарияси” фани умумкасбий фан ҳисобланиб 3 – 4 - семестрда ўқитилади. Дастурни амалга ошириш ўқув режасида режалаштирилган математика, физика, назарий механика ва материаллар қаршилиги, шахсий ЭХМ да программалаш фанларидан етарли билим ва кўникмаларга эга бўлишни талаб этади.

Фанни ўқитишда замонавий ахборот ва педагогик технологиялар.

Талабаларнинг “Машина ва механизмлар назарияси” фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг илғор ва замонавий усуллардан фойдаланиш, янги инфорацион – педагогик технологияларни тадбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, маъруза матинлари, тарқатма материаллар, электрон материаллар, виртуал стендлар ҳамда турли механизмлар макетларидан фойдаланилади.

Маъруза, амалий ва тажриба дарсларида мос равишдаги илғор педагогик технологиялардан фойдаланилади.

Асосий қисм: Фаннинг услубий жихатдан узвий кетма-кетлиги

Асосий қисмда (маъруза) фанни мавзулари мантикий кетме-кетликда келтирилади. Хар бир мавзунинг мохияти асосий тушунчалар ва тезислар орқали очиб берлади. Бунда мавзу буйча талабаларга ДТС асосида етказилиши зарур бўлган билим ва кўникмалар тўла қамраб олиниши керак.

Асосий қисм сифатига қўйладиган талаб мавзуларнинг долзарблиги , уларнинг иш берувчилар талаблари ва ишлаб чакариш этиёжларига мослиги , мамлакатимизда бўлаётган ижтимоий –сиёси ва демократик ўзгаришлар, иктисодиётни эркинлаштириш, иктисодий –ҳуқуқий ва бошқа соҳалардаги ислохатларнинг уствор малаларини қамраб олиши ҳамда фан ва технологияларнинг сунги ютуқлари эътиборга олиниши тавсия этилади.

Фаннинг назарий машғулотлари мазмуни

Машина ва механизмлар ҳақида тушунчалар, уларнинг таърифлари ва мазмуни.

Кинематик жуфтлар, уларнинг класификациялари. Кинематик занжирлар. Фазода ва текисликда ҳаракат қилувчи механизмларнинг кўзгалувчанлик даражаси класификацияси, узатиш функцияси. Звеноларнинг нисбий чизиқли ва бурчак тезлик, тезланишлар. Механизм звеноларининг ҳолатлари ва уларнинг нуқталарини траекториялари. Механизм кинематик характеристикаларини тезлик ва тезланишлар планлари ёрдамида, диаграмма услида, ҳамда экспериментал усулда текшириш. Механизмларнинг кинематик текширишда ЭХМ ни қўллаш.

Динамик анализнинг асосий мавзулари.

Машинанинг динамик параметрлари ва уларнинг характеристикалари. Машинанинг динамик модели, келтирилган куч ва массалар (инерция моменти). Динамик моделнинг кинетик энергия ва дифференциал тенгламалари формасидаги ҳаракат тенгламалари. Машинанинг ҳаракат режимлари. Ҳаракат тенгламаларни ечиш. Механизмларнинг нотекис ҳаракати. Маховик ва унинг инерция моментини аниқлаш усуллари. Кинематик занжирларнинг статик аниқлиги. Кинематик жуфтлардаги реакция кучларини куч планлари ёрдамида аниқлаш. Етакловчи звенонинг куч ҳисоби. Жуковский теоримаси ёрдамида мувозанатловчи кучни аниқлаш. Механизмларни мувозанатлаш. Роторларни статик ва динамик мувозанатлаш. Ишқаланиш турлари, уларнинг кинематик жуфтлардаги таъсири. Ички ва ташқи ишқаланишлар. Сирпанма ва думаланиш ишқаланиш. Ишқаланиш коэффициенти ва унга таъсир этувчи факторлар. Тебраниш манбаалари ва титрашга ҳимоялашнинг асосий усуллари. Титрашдан муҳофазаланиш. Тебранишнинг динамик сўндириш. Тебранишнинг зарбли сўндириш. Ёпишқоқ ва қўриқ ишқаланиш билан тебранишни ютувчилар. Актив титрашга ҳимоялаш системалари. Титрашни фойдали ишлатиш. Титрагич машиналари.

Механизмларни синтез қилиш (лойиҳалаш)

Ричагли механизмларнинг синтези. Саноат роботлари ва манипуляторларни синтез ва автоматик бошқариш. Манипулятор ва роботлар, уларнинг турлари ва ишлатилиши. Манипуляторларнинг синтези ва звеноларнинг ўлчамларини аниқлаш. Саноат роботларининг тараққиёти. Қисқич ҳаракати траекторияси ва баъзи звеноларнинг ҳаракати қонунлари. Автоматик бошқариш системалари. Тақсимлаш валлари, команда аппаратлари ва кўчирмалар ёрдамида бошқариш системалари. Иш бажариш органларининг ҳаракат тактлари ва цикллари, машиналарнинг тактограммалари ва циклограммалари. Саноат модуллари (СМ), автоматлаштириш воситалари ва роботлаштириш комплекслари. Тишли механизмлар синтези. Тишли механизмлар, илашманинг асосий қонуни. Эвольвентали узатмаларнинг асосий геометрик ўлчамлари. Эвольвентали тиш профилини лойиҳалаш. Кулачокли механизмлар синтези. Кулачокли механизмларнинг турлари. Механизмларни лойиҳалашда чиқиш звеносининг ҳаракат қонунлари ва уларни танлаш. Узатиш ва босим бурчаги бўйича асосий ўлчамларни аниқлаш. Берилган етакловчи звенонинг ҳаракат қонуни бўйича кулачок профили координаталарини аниқлаш. Алмаштирувчи механизмлар.

Амалий машғулотларни ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар.

Талаба амалий машғулотларда мисол ва масалалар ечади . Амалий

машгулотларда ечиладиган мисол ва масалалар қуйидаги принципларга асосан танланади : типик мисол ва масалаларни ечишга малака хосил қилдирувчи, фаннинг моҳиятини англатувчи ва мавзулар орасидаги боғлиқликни ифодалувчи маълум миқдордаги мисол ва масалалар танланади

Механизмларнинг кинематик характеристикалари. Текис механизм звенолари, ҳолатлари, тезлиги ва тезланиши планлари усули. Компютерни қўллаб кинематик характеристикаларни ҳисоблаш учун алгоритмларни ишлаб чиқиш усули ва дастурлар таҳлили (намунали механизмлар учун). Механизмларнинг куч ҳисоби. Жуковский ричаги Компютерни қўллаб куч ҳисоби учун алгоритмларни ишлаб чиқиш ва дастурларни таҳлил қилиш. Куч ҳисобини график усули, куч планлари усули. Жуковский теоремаси бўйича мувозанатловчи кучни аниқлаш. Қаторли тишли узатмалар. Қаторли тишли узатмалар кинематикаси. Поғонали мураккаб тишли узатмаларни кинематикаси. Планетар ва дифференциал механизмлар. Қўғалувчан мураккаб тишли узатмалар кинематикаси. Иш режимининг юрғизиш даврида машина ҳаракати қонунини аниқлаш. Кулачокли механизмлар анализи. Берилган чекланишларга кўра ўлчамларни аниқлаш билан кулачокли механизмларни лойиҳалаш

Лаборатория ишларини ташкил этиш бўйича кўрсатмалар.

Талаба лаборатория ишларинида мисол ва масалалар ечади . Лаборатория ишларинида ечиладиган мисол ва масалалар қуйидаги принципларга асосан танланади : типик мисол ва масалаларни ечишга малака хосил қилдирувчи, фаннинг моҳиятини англатувчи ва мавзулар орасидаги боғлиқликни ифодалувчи маълум миқдордаги мисол ва масалалар танланади

Текис механизмларнинг структуравий таҳлили, структуравий схемаларини тузиш, локал ва ортиқча структуравий боғланишларни алоҳида кўрсатиш. Саноат роботлари ва манипуляторнинг тузилиши ва асосий характеристикалари. Ричакли механизмларин кинематик синтези. Тезлик ва тезланишларни тажриба усулида аниқлаш. Кинематик жуфтлардаги ишқаланиш жараёнини текшириш. Редуктор ва бошқа механизмларнинг Ф.И.К ини аниқлаш. Ричагли механизмларнинг келтирилган инеция моменти ва тажриба усули билан аниқлаш. Эвольвинтавий тишли узатманинг асосий параметрларини ва ўлчас натижаларига биноан уларни аниқлаш. Роторларни динамик мувозанатлаш. Кулачокли механизмларни анализи ва синтези.

Курс лойиҳасини ташкил этиш бўйича кўрсатмалар.

Машина ва механизмлар назариясидан курс лойиҳаси ҳажми бўйича 3 варақдан иборат бўлиб, ричагли механизмларни кинематик ва кинетостатик ҳисоблаш, тишли редукторларни лойиҳалаш ва тиш профилини чиқариш, кулачокли механизмларни синтез қилиш, зарур бўлган график қурилмалардан ва ҳисоблардан, компютерларда ҳисоблаш

алгоритмидан ташкил топгпн A2 формула чизмаларидан ва ҳисоби хатидан иборат.

Курс лойиҳаси топшириғи комплекс тарзда бўлиб, ундан қандайдир машина, ускуна ёки қурилмалар системасига қўшилган асосий механизмлар турларини лойиҳалаш ва текшириш кўзлангандир.

Топшириқ талабаларнинг қайси таълим йўналишида ўқиётганини ҳисобга олган ҳолда ОЎЮ томонидан тайёрланади.

Мустақил таълимни ташкил этишнинг шакли ва мазмуни

“Механизм ва машиналар назарияси” фанини ўрганувчи талабалар аудиторияда олган назарий билимларини мустаҳамлаш ва иқтисодияги амалий масалаларни ечишда кўникма ҳосил қилиш учун мустақил таълим тизимига асосланиб кафедра ўқитувчилари раҳбарлигида, мустақил иш бажарадилар. Бунда улар кўшимча адабиётларни ўрганиб ҳамда интернет сайтларидан фойдаланиб рефератлар ва илмий докладлар тайёрлайдилар, амалий машғулоти ва слайдлар тайёрлайдилар.

Талабаларга мустақил ишни тайёрлашда муайян фаннинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги шакллардан фойдаланишга тавсия этилади:

- дарслик ва ўқув қўлланмалар буйича фан мавзуларини ўрганиш;
- тарқатма материаллар буйича маърузалар қисмини ўзлаштириш;
- компьютер технологиялар тизимлар билан ишлаш;
- махсус адабиётлар буйича реферат ва конспеклар таёрлаш;
- талабанинг ўқув, илмий – тадқиқот ишларини бажариш билан боғлиқ фанлар адабиётлар, монография ва илмий тўпламларни чуқур ўрганиш;
- интерактив ва муаммоли ўқитиш жараёнида фаол қатнашиш;
- масофавий (дистанцион) таълимни ташкил этишда қатнашиш.

Тавсия этилган адабиётлар рўйхати

Асосий адабиётлар.

1. Yoldoshibekov B. K. , Muhammedjonov S.A. Mxanizm va Mashinalar nazariyasi.- T.: «Voriz - nashriyot» MCNJ, – 2006.-198 б.
2. Зокиров Ғ. Ш. Машина ва механизмлар назарияси.- Т.: «Ўзбекистон», 2002.- 183 б.
3. Усмонхожаев Ҳ. Ҳ. Механизм ва машиналар назарияси.-Т.: «Ўқитувчи», 1970.- 576 б.
4. Фролов К. В. Теория механизмов и машин.- М.: «Высшая школа», 1987.- 495 с.

5. Заблонский К. И. Теория механизмов и машин.- Киев: «Высшая школа», 1989.-374 с.

Қўшимча адабиётлар.

1. Рустамходжаев Р. Механизм ва машиналар назариясидан масала ҳамда мисоллар тўплами.- Т.: «Ўқитувчи», 1987.- 244 б.

2. Иззатов З. Х. Механизм ва машиналар назариясидан курсавий лойҳалаш.-Т.: «Ўқитувчи», 1979.- 191 б.

3. Артоболевский И.И. Сборник задач по теории механизмов и машин.-М.:

Издательство «Наука» главная редакция физико – математической Литературы. 1973.- 256 с.

4. Текисликдаги механизмнинг структурвий ва кинематиковий анализ

қилиш учун масалалар. Услубий қўлланма.- Бухоро ,1990. - 24 б.

5. Juraev. T. O., Shodiev Z. O. Mexanizm va mashinalar nazariyasi fanidan

tajriba ishlari uchun taeyyorlangan metodik kursatma. –B.: 2006 - 61 b.

6. Жўраев Т.О., Шодиев З. О. Машина ва механизмлар назарияси фанидан

тажриба ишлари учун тайёрланган методик курсатма.-Б.:2006 -62 б.

Интернет ва ЗиёНет сайтлари.

1. [www. Ziyo. Net](http://www.Ziyo.Net).

2. [http: www. msu.ru/;](http://www.msu.ru/)

3. www.duerkopp-Adler.de

4. www.yamata.com

5. www.singer co.com

Ishchi fan dasturi

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Ro`yxatga olindi

"TASDIQLAYMAN"
O`quv ishlari bo`yicha prorektor

№ _____
2017 yil. « _____ » _____

p.f.dok.prof. K.T.Olimov _____
« _____ » _____ 2017 yil.

**«MASHINA VA MEXANIZMLAR NAZARIYASI»
FANIDAN ISHCHI O`QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 300000 – Ishlab chiqarish texnik soha
Ta'lim sohasi: 320000 – Ishlab chiqarishlar texnologiyasi
Ta'lim yo`nalishi: 5321500 – Texnologiyalar va jihozlar
(mashinasozlik)

Ta'lim yo`nalishi (mutaxassislik) kodi va nomi	Talabanning o`quv yuklamsi, soat							Smestrlar, soat	
	Umumiy yuklama	Auditoriya mashg`ulotlari						Mustaqil ta'lim	5
		Jami	Ma`ruza	Amaliy	Tajriba	Semenar	Kurs loyiha (ishi)		
5321500-Texnologiyalar va jihozlar (mashinasozlik) (3-kurs)	87	54	18	18	18		kl	33	87

Buxoro – 2017 yil

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar: **Shodiyev Z.O.**- Bux MTI, "Mashinasozlik texnologiyasi" kafedrasi dotsenti.
 Qalandarov N.O. –Bux.MTI, "Mashinasozlik texnologiyasi" kafedrasi assistenti
 Oripov Z.B. –Bux.MTI, "Mashinasozlik texnologiyasi" kafedrasi assistenti

Fanning ishchi o'quv dasturi "Mashinasozlik texnologiyasi" kafedrasining 2017 yil "___" avgustdagi "___" - son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ **dots. N.F. O'rinov**

Fanning ishchi o'quv dasturi "Muhandislik -qurilish" fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan.
(2017 yil "___" avgustdagi № ___ - sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____ **dots. Sh.M.Murodov**

